


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi
Z.M Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Mahsus sirtqi bo'limi
Musiqqa va uni o'qitish metodikasi kafedrası

Tojiboyeva Nargizaning

« Yuqori sinf o'quvchilarining musiqiy - nazariy bilimlarini
kompyuter texnologiyasi orqali o'rgatishning zamonaviy usullari »
mavzusida

Bitiruv malakaviy ishi



Ilmiy rahbar:

M.Nasriddinov

Andijon– 2011

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING MUSIQIY - NAZARIY BILIMLARINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYASI ORQALI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI.

REJA

KIRISH

I . Bob. Umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarining musiqiy - nazariy bilimlarini kompyuter texnologiyasi orqali o'rgatish .

1.1. Umumta'lim maktablari yuqori sinflarda musiqa madaniyati mashg'ulotlarining mazmuni.

1.2. Musiqiy tarbiyada kompyuter imkoniyatlari.

II Bob Yuqori sinf o'quvchilarining musiqiy - nazariy bilimlarini kompyuter va zamonaviy pedagogik texnologiya usullari yordamida mustaxkamlash .

2.1. O'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini komp'yuter yordamida rivojlanitirish usullari.

2.2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uning bugungi kundagi zarurati.

Xulosa

Ilovalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Musiqa ko'ngilga ahloqan muayyan ta'sir ko'rsatish quvvatiga ega; hamonki, musiqa shunday hislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo'yilmog'i lozim.

ARASTU.

Mustaqillik tufayli buyuk ajdodlarimiz boy tarixiy qadriyatlarini, ming yilliklarni qamragan betakror va jozibali madaniyatimizga asoslangan ma'naviy merosimizni tiklay boshladik. Intilayotgan ona tilimizga, ruhiyatimizni poklatuvchi dinimizga qaytdik, milliy urf – odatlarimiz va an'analarimiz, milliy san'atimiz, xalq ijodiyoti va musiqamiz singari xalq ma'naviyatini ifodalovchi barcha qadriyatlarimiz qaytadan qad ko'tarmoqda.

Mustaqillikka e'rishgan bugungi kunda xalqimizni nafaqat moddiy mahsulotlar bilan ta'minlash, balki ayni bir paytda inson tarbiyasiga, shaxs kamolotiga, keng ko'lamdagi tarbiya ishlariga ham e'tiborni oshirish kerakligini taqozo e'tmoqda. Shu munosabat bilan bugungi kundagi dolzarb masala inson tarbiyasidir.

“Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim”.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ushbu so'zlarni aytayotganda ma'naviy jihatdan yetuk farzandlarni tarbiyalash uchun musiqa bosh ro'lni ijro etishini ko'zda tutgan bo'lsalar ajab emas.

Ma'naviyat “ma'ni”, “ma'no” so'zlarining ko'plik shakli bo'lib, insonning ma'noli hayoti va faoliyatini bildiradi. Inson hayotining ma'noliligini esa musiqasiz, san'atsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ma'lumki, musiqa san'ati o'z tabiatiga ko'ra insonlar hayotini, ularning voqelikka bo'lgan munosabatini va turli ichki kechinmalarini musiqiy tovushlar, badiiy obrazlar vositasida yorqin tasvirlaydi. Musiqa inson hayotiga kuchli ta'sir e'ta olish xususiyati bilan milliy ruhda tarbiyalashning muhim manbai hisoblanadi.

Ruhiyati sog'lom inson – qarimaydi. Ruhi tetik insonning kayfiyati chog', hech qachon tushkunlikka tushmaydi. Ruhiatning davosi esa musiqadir. Ruhan baquvvat, ruhan tetik bo'lgan insonda tashabbuskorlik, bunyodkorlik g'oyalari tug'ilaveradi. Bu Vatanimizning gullab yashnashiga yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Biz yosh avlod tarbiyasida aynan shunga, ruh sog'lomligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ruhi sog'lom insonga buzg'unchi va yot g'oyalar also yaqin yo'lamaydi.

Musiqa fani bizni ezgulikka, tashabbuskorlikka, vatanni sevishga, nafosat va madaniyatimizni oshirishga, fikr doiramizni kengaytirishga xizmat qiladi. Musiqaga oshno bo'lgan qalbgga hech qachon yomonlik yaqin yo'lamaydi. Qo'shiqlar kuylaganimizda, kuylar tinglaganimizda kayfiyatimiz ko'tariladi, yana ham ko'proq mehnat qilgimiz, yangiliklar yaratgimiz keladi.

Hurmatli Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov **“Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 – 2014 – yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash bo'yicha chora tadbirlari to'g'risida”** farmoyish chiqardilar. Bu albatta bejiz emas. Chunki, inson ma'naviyatini tarbiyalashda musiqaning o'rni beqiyos. U inson hayotini mazmunli qiladi, ma'naviy jihatdan boyitadi. San'at insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi barobarida, uning his - tuyg'ularini uyg'otadi, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Ezgulik sari yetaklaydi. Bu bilan insonning ma'naviy o'sishiga sharoit yaratadi. Ijtimoiy va shaxsiy hayotida eng murakkab muammolarni hal etishda

yordam beradi, har bir kishi hayotda o'z o'rnini topishiga ham ko'maklashadi. Buning uchun musiqani tushunish, u bilan oshno bo'lish lozim.

So'zimiz avvalida bejiz *ARASTU* fikrlarini yodga olmadik.

Yoshlarni ma'nan yetuk, axloqan tetik qilib tarbiyalash uchun mana bugungi kunda musiqa fani "Yoshlarni tarbiyalash predmetlari" qatoriga kiritilgan.

Lekin bundan qay darajada, qay usulda foydalanish, fanga nisbatan qanday yondoshish har bir o'qituvchining o'ziga bog'liq. Shu o'rinda musiqa fani maktabda o'qitiladigan har bir predmet, jumladan ona-tili, adabiyot, matematika, rasm, mehnat, kimyo, jismoniy madaniyat, tarix, milliy istiqlol g'oyasi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini aytib o'tishni lozim topamiz.

Musiqa darslari ko'proq adabiyot bilan bog'liq. Adabiyotda bolaning ko'ngli bilan, tuyg'ulari bilan ishlanadi. Insonning o'zligi, o'z mohiyati dunyoga, hayotga, tabiatga, odamlarga mehr – muhabbat asosida o'z olamini yaratib olishida, yaratganga ham haqiqat, ezgulik, yaxshilik va go'zallik qonunlariga muvofiq bo'lgan olamni yaratishida namoyon bo'ladi. Mana shu olamni bunyod etilishida adabiyot muallimini o'rni beqiyos ekanligini bilamiz.

I . bob. Umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarining musiqiy - nazariy bilimlarini kompyuter texnologiyasi orqali o'rgatish.

Bu o'rinda musiqa o'qituvchilarining mehnati ham adabiyot o'qituvchilarinikidan kam emas. Musiqa o'qituvchisi dars jarayonida qaysi usuldan, qaysi yo'ldan borishidan qat'iy nazar bosh maqsad o'quvchilarda o'rganilayotgan asar san'at namunasi ekanini hamisha nazarda tutishi, badiiy so'z sehrini his etishi va uni musiqiyiligini anglashi, undan hayratlanishi, zavqlanishi, asarning mohiyatini anglashi u haqida mustaqil mushohada qilishi asarning ma'rifiy qimmatidan bahramand bo'lishidan iboratdir. Musiqa o'qituvchisi ayni paytda g'oyat ulug' ezgu vazifani ado etadi – o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarini, birinchi galda inson va uning qalbini, dard dunyosini his etish tuyg'ularini tarbiyalaydi. Boshqa o'quv mashg'ulotlarida bilim berish ustivor bo'lsa, musiqa fani san'at sifatida inson ruhiyati, his – tuyg'ulari, ma'naviy dunyosini boyitishda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchini go'zallikni ko'ra olishiga imkon yaratadi. Musiqa darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta.

Ma'lumki, texnologiya tushunchasi pedagogika fanida ishlab chiqarish sohasiga nisbatan ancha qiyin qo'llana boshlagan. "Texnologiya" so'zining yunoncha techne – san'at, logiya – mahorat degan mazmuni anglatishi ham bejiz emas. Olimlarning ta'kidlashicha, "texnologiya" atamasi pedagogika fanida mutaxassislar tomonidan "bola shaxsiga ta'sir ko'rsatish san'atiga" e'tibor qaratilganidan so'ng qo'llanila boshlagan.

Demak, "pedagogik texnologiya" atamasini o'qitishda, ta'lim berishdagi pedagogik mahorat, yoki pedagogik san'at deb tushunish mumkin. Har qanday faoliyat yo texnologiya, yo san'at bo'lishi mumkin. San'at ichki hissiyotga, texnologiya esa fanga asoslanadi.

San'at, ya'ni individual mahorat texnologiyalar paydo bo'lgunga qadar ustivorlik qilib kelgan.

Masalan, har bir zargarning o'ziga hos ish uslubi, usullari va vositalari mavjud bo'lgan. U taqinchoq yasash jarayonini boshdan oxirigacha bir o'zi bajargan. Bu ishning ikir – chikirigacha yaxshi bilgan, ammo ish uzoq vaqt davomida bajarilgan va mahsulot sifatli bo'lgan. Mahsulotni tayyorlashning asosida zargarning ichki sezgirligi, mahorati, hissiyotlari yotgan.

Hozirgi kun ta'limining muhim jihatlaridan biri – bu ayni paytda ta'lim jarayoniga keng qamrovda joriy etib borilayotgan interfaol usullardir. Interfaol usul har bir o'quvchiga o'z bilimi, qobiliyatini keng namoyish qilish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida musiqa fanining adabiyot bilan bog'liqligini tilga olgan edik. Musiqa darslarida ham asar matni bilan tanishish, matn ustida ishlash, o'quvchilar ishtirokida taxlil qilinishi kerak. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchiga aql o'rgatuvchi, bilim beruvchi voiz emas, balki ularni bilim olishga undovchi, butun sinfni xarakterga keltiruvchi, har bir o'quvchini dars jarayonining ishtirokchisiga aylantiruvchi bilimdon, mohir tashkilotchidir. Masalan, "O'zbekiston – abadiy bahorim" :

Rauf Tolib she'ri

Nadim Norho 'jaye'v musiqasi

Bog'lar qanday serjilo,
Bir qarang.
Soy kuylari boshqacha,
Serjarang.
G'uncha menday jilmayib
Kulganday.
Ona yurtim sehriga
To'lganday.

Naqarot:

Ko'ngillarda ming his – tuyg'u,

Ming his – tuyg’u.
Orzu qushday talpinadi,
Talpinadi, uchadi.

Tovlanadimining rangda
Bog’ – bo’ston.
Dehqon yozgan quyoshday
Dasturxon.

Senda qancha rang, jilo
Diyorim.
O’zbekiston – abadiy
Bahorim.

Naqarot:
Ko’ngillarda ming his – tuyg’u,
Ming his – tuyg’u.
Orzu qushday talpinadi,
Talpinadi, uchadi.

Ushbu mavzuni o’rinishda men o’quvchilar bilan matn ustida ishlayman. Avvalo o’zim matnini ifodali o’qib beraman, o’quvchilarimdan ham shunday o’qishni talab qilaman. Men darsda shunga erishisim kerakki, asar matnini o’quvchilarim o’zlari tahlil qilsinlar. Asar mohiyatini o’z kuchlari bilan, mehnati bilan, boshqotirish, mushohada yuritish, matn ustida ishlash, bot – bot unga murojaat etish orqali o’zlari yangilik kashf etsinlar va bu kashfiyoti bilan fahrlansinlar. Shundan so’ng uni musiqaga solib, kuylashni o’rgansinlar. Shu tariqa dars jarayonida o’qituvchi va o’quvchilar o’zaro hamkorlikka interfaol kirishadi, ayni paytda o’quvchilar orasida ham o’zaro muloqot imkoni vujudga keladi.

Men musiqqa darslarida musiqiy asboblardan tashqari, to’liq kompyuter yordamida dars o’rinishni tavsiya qilaman. Bugungi kunda mening darslarimda asosan, kompyuter orqali beriladigan ma’lumotlar ko’proq samarali natijalar bermoqda. O’quvchilar kuy va qo’shiqlar tinglash, musiqaga oid rivoyat va ertak tomoshalar, bolalar uchun yaratilgan spektakllardan parchalar tomosha qilish, milliy musiqiy me’rosimiz, milliy musiqqa asboblari va bastakorlarga doir malumotlarni olish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Shu bilan birgalikda, aynan musiqqa darsida zamonaviy texnika vositasidan foydalanishni ham o’rganadilar.

Endi bunda erishayotgan yutuqlarimga va kompyuter yaratib berayotgan qulayliklarga kelsak.

Men shundan mamnunmanki, bugungi kun bolasi o’ta qiziquvchan va juda izlanuvchan. Darslarimni kompyuter orqali tashkillashtira boshlaganimdan so’ng, o’quvchilarning darsga qatnashish darajasi, fanga bo’lgan qiziqishlari yanada ortdi. Bolalarda qo’shimcha ijodiy izlanishlarni seza boshladim.

Oquvchilarga tinglash uchun berilgan qo’shiqlar, kompozitor va bastakorlarning asarlari; jumladan shashmaqom, uning cholg’u mushkilot kuylari, aytim nasr yo’llari, Motsart, Betxoven, Shopen, Glinka kabi buyuk kompozitorlarning asarlarini tinglatish, ularni tahlil etish, ohanglar almashinuvi, dinamik belgilar mohiyati, ritmi, o’lchovini his etish, umuman olganda musiqaning mazmun mohiyatini his etish va tushuntirib berish juda qulay kechadi.

Kompyuter yordamida, kuyni chalishda ishtirok etgan har bir asbobni alohida - alohida eshita olish imkoniyatiga ega bo’lamiz. Bunda bizga “Sibelius” va “Karaoke” dasturlari yordam beradi. O’quvchilar esa, ham dastur bilan, ham musiqqa asbobi bilan tanishadilar.

Masalan Motsartni “Rondo”sini misol qilishimiz mumkin.

♩ = 160

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

4

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

7

Piano (BB)

Guitar (BB)

Drums (BB)

Bass (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

9

Piano (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

12

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

15

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

26

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

29

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

32

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

Dars davomida jamoa bo'lib kuylash uchun Avaz Mansurov, Nadim Norxo'jayev, Dilorom Omonullayeva, Sermat Yormatov, Darvin Omonullayev, Farxod Olimov, Habibullo Rahimov, Ikrom Akbarov kabi taniqli bastakorlarimizning ko'plab asarlari berilgan. Ularni o'qituvchi kuylab bergandan so'ng, kompyuter orqali eshittiriladi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyatini oshiradi. Bolalar jamoa bo'lib kuylayotganlarida, yoki qo'shiqlar tinglayotganlarida qo'shiq matniga mos tasvirlar, masalan, fasllarga qarab tabiat manzaralari, Vatanimizning go'zal go'shalari, Vatanimiz sarhadlarini mardlarcha qo'riqlayotgan askarlarimiz, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida tinim bilmay xizmat qilayotgan insonlar, yurtimizning tihch va osuda, go'zal hayotini tasvirlovchi lavhalar kompyuter ekranida namoyon bo'lib boradi.

Bu esa bolalarni musiqa orqali Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularni Vatanga sadoqatli bo'lishga, yurtimiz tinchligiga rahna soluvchi har qanday yot g'oyalardan yiroq bo'lishga yordam beradi.





O'quvchilar jamoa bo'lib kuylaganlarida , jamoa bo'lib kuylash qoidalariga amal qilishlariga erishishda , qo'shiqni tekis – ravon, chiroyli qilib kuylab bera olishlariga erishishda ham kompyuter yordam beradi.

Inson o'zidagi kamchilikni o'z aksini ko'rgandagina sezishi mumkin. O'quvchilar esa qo'shiq kuylayotganlarida yo'l qoygan xato va kamchiliklarini qachonki , o'z ovozlari eshitganlaridagina tushunib etadilar. Va bu kamchiliklarni bartaraf etishlari, o'qituvchi tanbehidan keyingi holatdan ko'ra osonroq kechadi.

Men yana oraliq nazorat va yakuniy nazorat ishlarini, test sinovlarini kompyuter orqali o'tkazaman. Bu esa men uchun ham , bolalar uchun ham tez va oson, sifatli kechadi.

Yana shuni aytib o'tishim mumkinki, men maktabimiz sharoitidan kelib chiqqan holda, imkoniyatim darajasida bolalar qo'g'irchoq teatrini tashkil etganman. O'quvchilar ijrosida turli xil ertak qaxramonlari obrazlarini yaratamiz. Kompyuter yordamida ajoyib rivoyatlarni bolalar

ovozi bilan yozib olamiz. Bu mening musiqa to'garigidagi faoliyatimning bir bo'lagini tashkil qiladi.

Bularning barchasiga erishish uchun menga kompyuter orqali ishlash ko'p qulayliklar yaratib bermoqda.

1.1. Umumta'lim maktablari yuqori sinflarda musiqa madaniyati mashg'ulotlarining mazmuni.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining har bir bosqichi o'qituvchi oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. O'qituvchi o'z imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda, umumdidaktik metodlardan foydalanishi, bosqichlararo uzluksizlikni ta'minlashi, turli xil metodlardan unumli foydalanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi kerak. Uzluksiz ta'limning ayrim bosqichlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish muhimdir. Chunki o'rganadigan mavzulari, bolalarning yosh xususiyatlari, o'zlashtirish qobiliyatlari bu sinflarda deyarli bir xil bo'ladi. Shuning uchun ham 5-6-sinflarni uzviy holda o'rganish mumkin. 4-sinfda boshlang'ich maktabning tugaganligini hisobga oladigan bo'lsak, 5-sinfda bolalar bevosita yangi bosqichga, ya'ni o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichiga o'tadilar. Bu sinfda barcha fanlar bo'yicha o'qituvchilarning o'zgarishi, sinf rahbarining o'zgarishi o'quvchilarning yangi sharoitlarga ko'nikishini talab qiladi. Bu jarayon ayrim o'quvchilarga qiyinchiliklar tug'diradi. 5-6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga umumiy xarakteristika Pedagogik-psixologik adabiyotlardan ma'lumki, bu yosh o'smirlik davriga to'g'ri keladi. O'smirlik davri chegaralari taxminan 5-8-sinfga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, lekin o'smirlik yoshiga o'tish 5-sinfga o'tish bilan mos tushmasligi va bir yil oldin yoki keyin sodir bo'lishi ham mumkin. O'smirlik davri «o'tish», «keskin o'zgaruvchan», «mushkul», «qiyin» davr deb ham nomlanadi. O'quvchilarda bu yoshda sodir bo'ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etish joiz. Bu hayotning bir davridan boshqasiga o'tish bilan bog'liq. Inson rivojlanishining barcha yo'nalishlari bo'yicha (jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va miqdoriy o'zgarishlar ro'y beradi. O'smir shaxsi rivojlanishning muhim omili – uning shaxsiy faolligi – shaxsiyat omilidir. Bu davrda o'smirning o'z-o'zini anglashi jarayoni faol va mashaqqatli kechadi. O'smirning yoshidagi muhim o'zgarishlar uning organizmidagi jismoniy o'sish va biologik voyaga etish bilan bog'liqdir. O'smirlar bilimdon va talabchan, lekin materialni qiziqarli va aniq tushuntirib beradigan, darsni bir me'yorda tashkil eta oladigan, unga jalb qila oladigan, darsni har bir o'quvchi uchun maksimal darajada unumli eta oladigan adolatli, oqko'ngil va madaniyatli o'qituvchilarni yoqtiradilar. O'smir organizmi o'sishidagi sakrashlar, endokrin tizimdagi o'zgarishlar, gipofiz faoliyatidagi faollik, jinsiy voyaga etish, yurak, mushak, butun organizmning mustahkamlanishi insonning psixik, aqliy va ruhiy o'sishida muhim o'zgarishlarga olib keladi. Musiqiy tarbiyada bu yosh ovoz apparatining mutatsiyasi davri bilan bog'liq. Ovoz apparati yo'g'onlashadi, ovoz ayniqsa, o'g'il bolalarda sezilarli darajada pastroq bo'lib boradi. Shuningdek, ovozning buzilish holatlari ham shu davrga xosdir. Bu yoshda ovoz apparatining haddan ortiq yuqori tessiturasidan qochib, vokal repertuari tanloviga ehtiyotkorona yondashish lozim. Endi mutatsiya xodisasiga batafsil to'xtalib o'tamiz. O'g'il bolalarda mutatsiyaning boshlanish davri, odatda jinsiy bolog'atga etish davriga to'g'ri keladi. Mutatsiyaning boshlanishi ko'p sabablarga bog'liq, juladan, iqlimga ham bog'liqdir. Mutatsiya davrida hiqildoq tez o'sadi. Ayniqsa qalqonsimon tog'ay juda kattalashadi. Boylamlar ikki barobar 13-14mm dan 24-25mm gacha kattalashadi. Bu davrda hiqildoq kasallikka chalinuvchan bo'lib qoladi. Ovoz ehtiyot qilinmasa, hiqildoqda turli xil kasalliklar paydo bo'lishi mumkin.

Mutatsiyaning turi va davomiyligi hammada har xil kechadi. Bolalarda mutatsiyaning boshlanganligini o'z vaqtida payqash va vokal asarlarini to'g'ri tanlash o'ta muhim shartlardandir. Mutatsiya boshlanganligining dastlabki belgilari: ovozning nimjon bo'lib qolishi, intonatsiyaning buzilishi, qo'shiq aytish xohishining yo'qolishi, ovozning xirrilab qolishi. Mutatsiya hammada har xil, ayrim bolalarda engil, ayrim bolalarda esa og'ir kechadi. Bir me'yorda ovozning yo'g'onlashib borishi bu engil mutatsiyadan darak bersa, ovozning bir yo'g'onlashib, bir ingichka yangrashi, gohida ovozning chiqmay qolishi og'ir mutatsiya belgilaridir. Kuztishlarga ko'ra ko'pincha, diskant ovozlar basga, alt ovozlar tenorga aylanadi. Qizlarda ham mutatsiya davri bo'lib o'tadi. Biroq ularda mutatsiya o'g'il bolalarnikidek sezilarli o'tmaydi. Qizlarda mutatsiya bilinmay, juda sekin o'tganligi tuffayli ularning ovoz

o'zgarishlarini payqash mushkul. Bu davrda og'ir kuylarni kuylashga berish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ovozni haddan tashqari zo'riqtirib qo'yish natijasida, qizlarning ovoz paylarida bog'lam, tugunchalar paydo bo'lishi va keyinchalik mulaqo ovoznig yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

O'qituvchi mutatsiyaning har xil – sezilarli yoki sezilmasdan o'tishini hisobga olgan holda, o'quvchilarning ovoz apparatlarini zo'riqtirmay, ularga engil kuy va qo'shiqlarni berishi kerak. 5-6-sinfda qo'shiq kuylash faoliyati Qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. ovoz apparati o'smir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Jismoniy o'sish ham ovoz apparatining o'sishi ham ravonligini yo'qotib, notekis ravishda shakllanadi. Budaavrda mutatsiya davom etadi. Shuning uchun ham ularga ovoz diapazoni keng, baland dinamikadagi asarlarni kuylash tavsiya etilmaydi. O'quvchilar qo'shiqlarni past-yarim ovozda baqirmasdan, ehtiyotkorlik bilan kuylashlari kerak. Bu sinf o'quvchilari bilan bir ovoqli qo'shiqlar bilan birga ikki ovoqli qo'shiqlar ustida ham ish olib boriladi. Buning uchun kichik hajmdagi kanonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Qo'shiqlar o'rtacha sur'atda yozilgan bo'lishi, katta intervallarga sakrashlarning bo'lmasligi bu davrda muhim ahamiyat kasb etadi. 5-6-sinfda musiqa tinglash faoliyati Musiqiy asarni tinglash jarayonida o'quvchilarga asarni tinchlikni saqlagan holda, gaplashmay madaniyatli tinglash odobini o'rgatish muhimdir. Asar boshidan oxirigacha ifodali, badiiy ijroda magnit tasma yoki o'qituvchining jonli ijrosi orqali eshittiriladi. Musiqa yangrashi bilan barcha sinfdagilar, jumladan o'qituvchining o'zi ham berilgan holda, barcha ishlarini chetga surib diqqat bilan tinglashi kerak. Bu yoshdagi o'quvchilar murakkab ichki dunyo, his-tuyg'ular, ichki kechinmalarga boy, muhabbat mavzularidagi, qahramonlik ruhida, tragediya va satira kabi janrlardagi musiqiy asarlarni bajonudil kuylaydilar. O'smirlar hissiyotga beriluvchan, ta'sirchan bo'lganligi sababli, chuqur falsafiy g'oyalar bilan sug'orilgan, orzu va baxt-saodat uchun kurash, ilk muhabbat kechinmalari, sog'inch kabi insoniy his-tuyg'ular ifodalangan musiqa ularga kuchli hissiy ta'sir o'tkazadi v jiddiy mushohada qilishga undaydi. Beshinchi sinfda o'quvchilarning musiqiy dramaturgiya haqidagi tushunchalarni rivojlantirish va tasavvurlarini uyg'otish muhim vazifadir. "Musiqa madaniyati" dasturiga kirgan buyuk g'oyalarni aks etuvchi T.Qurbonovning "SHiroq" baleti, U.Musaevning "To'maris" baleti, T.Jalilovning "Tohir va Zuhra" operasi, S.YUdakovning "Mirzacho'l" vokal-simfonik syuitasi, L.Betxovenning "Qahramonlik", A.Motsartning 40-simfoniyasini tinglab idrok etish jarayonida, o'quvchilar bu asarlardagi aniq ifodalangan musiqiy obrazlar va ularning to'qnashuvlari, ziddiyatlari, motivlar kurashi, dramatik rivojlanishlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar. 6-sinfda esa o'quvchilar bevosita mumtoz musiqa haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. Mumtoz musiqa namunalari tinglaydilar. SHuningdek, sharq xalqlari mumtoz musiqalaridan namunalari tinglab o'z bilimlarini oshiradilar.

Musiqa savodi faoliyatida asosan musiqa nazariyasiga oid bilimlar o'rgatiladi. O'quvchi musiqa savodini o'zlashtirib borar ekan, u musiqiy asarlarni bemaol nazariy jihatdan tahlil qila oladi. Bu sinflarga kelib o'quvchilar tovush, ritm, o'lchov, sur'at, alteratsiya belgilari, major va minor ladlari, ikkita belgigacha bo'lgan tonliklarni biladilar. O'qituvchi o'quvchilarning mazkur faoliyatda egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini boshqa faoliyat turlarida unumli qo'llay bilishi kerak. Bu o'z navbatida o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi hamda boshqa faoliyatlardagi bilimlarini ham orttiradi. 5 sinf Yil mavzusi: Kompozitorlik musiqa janri.

1-chorak O'zbek xalq cholg'ulari orkestri. Xor san'ati.

2-chorak Simfonik orkestr. Musiqada vokal simfonik janrlar.

3-chorak Sahnaviy musiqa asarlari. Balet va raqs san'ati. Musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak tomoshalar.

4-chorak Opera san'ati. O'zbek musiqasida opera janri.

6 sinf Yil mavzusi: Mumtoz musiqa.

1-chorak Mumtoz musiqa haqida tushuncha.

2-chorak Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari.

3-chorak Sharq xalqlari mumtoz musiqasi namunalari.

4-chorak Evropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv.

Savol va topshiriqlar:

- 1) Beshinchi va oltinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.
- 2) Beshinchi va oltinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
- 3) Qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va unga qancha vaqt ajratish kerak?
- 4) Mutatsiya xodisasiga ta'rif bering.
- 5) Beshinchi va oltinchi sinflarda o'quvchilar qanday musiqiy asarlarni tinglaydilar?
- 6) Beshinchi va oltinchi sinfdagi musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?
- 7) Beshinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 8) Oltinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 9) Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelib chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang.
- 10) Yuqoridagi sinflar o'quv dasturiga yana qanday kuy va qo'shiqlarni kiritgan bo'lar edingiz?

7-sinfda musiqa o'qitish metodikasi va mazmuni

7-sinf o'quvchisiga xarakteristika

7-sinf o'smirlik davriga to'g'ri kelib, qiyin o'quvchi davr hisoblanadi. Bu ko'pgina olimlarning kuzatishlarida o'z aksini topgan. O'quvchilar bu yoshda jismoniy etiladilar. Bu davrda musiqa darslarini o'smirning holatiga qarab tashkillashtirish talab etiladi. Bu davrda o'quvchilarda ovoz mutatsiyasining eng rivojlangan paytidir. Ovoz apparati o'smir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Ovoz apparatining o'sishi ravonligini yo'qotib, notekis rivojlanadi. Ayrim o'quvchilarda mutatsiya 5-6-sinflarda boshlangan bo'lsa, ayrimlarida endi boshlanadi. Bu o'qituvchidan nihoyatda katta mas'uliyatni talab etadi. Chunki sinfnig yarmi mutatsiyaning so'ngi bosqichida bo'lsa, qolgan yarmi boshida bo'ladi. Bu davrda o'quvchilarning ovoz diapazoni yuqori ovozlarda – 1 “do”dan 2 “mi”gacha, quyi ovozlarda – kichik oktava “si”dan 2 oktava “re” gacha bo'ladi. 7-sinf o'quvchilarining ichki dunyosi ancha shakllangan va rivojlangan bo'ladi. Ularning dunyoqarashi kengaygan bo'lib, o'z fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladilar. Musiqiy didlari ham yaxshi shakllangan bo'lib, o'qituvchi repertuar tanlashda ularning qiziqishlarini hisobga olmog'm kerak. 7-sinf o'quvchilari ixtiyoriy diqqatga ega bo'ladilar va qiyinchiliklarsiz yirik musiqa shakllarini idrok eta oladilar (uvertyura, simfoniya, sonata, maqom va hokazo). O'quvchilar asarga nisbatan paydo bo'lgan his-tuyg'ulari, tasavvurlarini hikoya tarzida aytib bera oladilar. Shuningdek, 7-sinf o'quvchilari kompozitor yoki bastakor haqida referatlar, bukletlar va nutqlar tayyorlay oladilar. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning mana shunday ijodiy xislatlaridan unumli foydalangan holda, ularni musiqiy to'garaklar, xor jamoalariga jalb qilishi, qolaversa, o'quvchilar orasida o'tkaziladigan tanlov, musobaqa va olimpiadalarga jalb etishi muhim. Bu o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini orttirib qolmay, balki etti yil davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

7-sinfda “Musiqqa madaniyati” darslarining tuzilishi

7-sinfdagi musiqa darslari umuta'lim maktablari uchun belgilangan musiqa ta'limining so'nggi bosqichi hisoblanadi. 7-sinfda musiqa darslari asosan, uchta faoliyatni o'z ichiga qamrab oladi.

Xususan:

1. Qo'shiq kuylash.
2. Musiqa idroki (tinglash).
3. Musiqa savodi.

Mazkur sinfdagi avvalgi sinflarda o'tilgan musiqa materiali yakunlanadi va mustahkamlanadi. Musiqa darsining tuzilishi asosan, ijrochilikni tashkil etsada, musiqa savodi va

idrokisiz to'laqonli ijroga erishib bo'lmaydi. Bundan tashqari jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda bir qator ijobiy fazilatlar shakllanadi.

Musiqqa darslari quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi:

- dars mavzusi (yil, chorak va dars avzusidan kelib chiqqan holda);
- darsning turi (to'rt faoliyatdan biri ustuvor bo'ladi);
- darsning maqsadi: ta'limiy va tarbiyaviy;
- qo'llaniladigan adabiyotlar;
- darsning olib borilishi;
- amaliy ishlar;
- yangi mavzuni o'tish (barcha faoliyatlarni o'z ichiga qamrab oladi);
- o'tilgan mavzuni mustahkamlash;
- uyga vazifa berish va o'quvchilar bilimni baholash.

Barcha sinflarda yil va chorak mavzulari mavjud bo'lib, 7-sinfning yil va chorak mavzulari quyidagicha:

Yil mavzusi: Xalq musiqasining maxalliy uslublari.

1-chorak: Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand vohalarining musiqiy uslublari bilan tanishuv.

2-chorak: Farg'ona, Toshkent hamda Xorazm vohalari musiqiy uslublari bilan tanishuv.

3-chorak: Maqom. SHashmaqom.

4-chorak: Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari.

7-sinfda qo'shiq kuylash faoliyati

7-sinfda qo'shiq kuylash jarayonida o'tgan sinflardagi vokal-xor malakalari mustahkamlanadi va aralash xorda kuylashning boshlang'ich malakalari shakllanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, bolalarning ovoz apparati o'zgarishi natijasida ular o'zlarining "yangi ovoz"laridan uyalib, qo'shiqni kuylamasligi mumkin. Bu paytda o'qituvchi ehtiyotkorlik bilan yondashib, kerakli chora-tadbirlarni qo'llashi kerak.

Bu davrda sinfdagi o'quvchilar ovozi uchga bo'linadi: 1) "do" birinchi oktavadan "mi" ikkinchi oktava diapazonidagi ovozlar; 2) "si" kichik oktavadan "re" ikkinchi oktavagacha bo'lgan ovozlar; 3) "mi" ("re") kichik oktavadan "si" ("do") kichik oktavagacha (mutatsiya davrida bo'lgan ovozlar). Shu sababli o'qituvchi jamoa bo'lib kuylash jarayonida, ayniqsa mutant ovozli bolalarning to'g'ri kuylayotganligini nazorat qilib turishi lozim. Qo'shiq kuylash faoliyati uchun tavsiya qilingan dastur – janr va musiqiy obrazlarning xilma-xilligi tufayli o'quvchilarning badiiy didini rivojlantirishga katta ta'sir qiladi. Ko'povozlilik – jamoa bo'lib kuylash faoliyatining asosiy omillaridan biridir. Ushbu usulda kuylash 7-sinf o'quvchilari uchun juda foydalidir. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarning ovoz imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, jamoa bo'lib kuylash jarayonida ular o'z ovozlarni ehtiyot qilish va ortiqcha zo'riqtirmay kuylash imkonini beradi. Ko'povozli asarlarni kuylashdan avval, ko'p ovozlilik elementlari bo'lgan bir qator mashqlarni kuylash, avvalgi sinflarda o'tilgan osonroq bo'lgan ko'povozli kuylarni qaytarish yaxshi natijalar beradi.

7-sinfda musiqqa idroki (tinglash)

Musiqqa idroki jarayoni musiqqa mazmunini eshita bilish va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirishdir. Yuqorida aytilganidek, 7-sinf o'quvchilarida tinglash jarayonida ixtiyoriy diqqat ancha rivoj topgan bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilar ancha katta hajmdagi asarlarni uzoq muddat tinglay oladilar. SHuni hisobga olgan holda 7-sinfda mumtoz musiqiy merosimizga salmoqli o'rin ajratilgan bo'lib, o'quvchilar o'zbek maqomoti va maxalliy uslublarni o'zlashtiradilar. Ular dars jarayonida turli xil xalq va kasbiy ashula namuna (Mustahzod, Savti suvora, Mug'ulchai Dugoh Qashqarchasi va hoqazo)lardan tinglaydilar. Bu kabi namunalarni tinglash o'quvchilarda o'zbek mumtoz musiqqa merosiga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, ularning estetik dunyoqarashini boyitadi. Bu sinfdagi o'quvchilarga uyga beriladigan vazifalar ham

ahamiyatlidir. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularga simfoniya, kantata, operalardan, maqomlardan, katta ashulalardan namunalar tinglashga berishi mumkin. Uyda mustaqil ravishda tinglangan asarlar sinf dars jarayonida birgalikda tahlil qilinishi kerak hamda o'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini tuzatib borishi lozim. Bu o'qituvchiga o'quvchilarni baholash va ularning bilim darajalarini aniqlashga yordam beradi.

7-sinfda musiqa savodi jarayoni

7-sinf musiqa darsiga qo'yilgan talablarga binoan o'quvchilar musiqiy asarning mazmuni, xarakteri, janr va shaklini, lad va tonligini aniqlay olishlari zarur. Mazkur sinf o'quvchilari musiqa savodi faoliyati orqali o'zlashtirgan materiallarini takrorlaydilar va mustahkamlaydilar. Bunday tashqari yangi tushuncha va atamalar bilan ham tanishadilar (katta ashula, dugoh, segoh, tuzuk, ufar va hokazo). Har bir chorakdan so'ng yozilgan musiqa lug'ati bolalar uchun juda qulaydir. 7-sinfdagi muhim talablardan biri – o'quvchilarning notaga qarab nutqlay olishlaridir. Ular major va minor ladlarida bemalol solfedjiolab kuylay olishlari kerak. Bu faoliyat uchun murakkab bo'lmagan asarlar tavsiya qilinadi. 7-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi musiqa asarlarini tahlil qilishni o'rganadilar. Ular musiqiy asarning kaliti, tonligi, o'lchovi, ritmi, tempi, mazmuni, xarakteri va janri haqida ma'lumot bera olishlari kerak.

Savol va topshiriqlar:

- 1) Ettinchi sinf o'quvchilari xususiyatlariga tavsif bering.
- 2) Ettinchi sinflarda qanday musiqa faoliyatlari amalga oshiriladi?
- 3) Mazkur sinfda qo'shiq kuylash jarayoni qanday amalga oshiriladi va repertuarga qaysi mavzudagi qo'shiqlar kiritilgan?
- 4) Ettinchi sinf o'quvchilarining ovoz diapazonlari qanday bo'ladi?
- 5) Ettinchi sinfda o'quvchilar tinglashi uchun qaysi mavzu va janrdagi kuy va qo'shiqlar tavsiya etiladi va nima uchun?
- 6) Ettinchi sinfda musiqa savodi jarayonida qanday mavzular o'zlashtirilishi nazarda tutilgan?
- 7) Ettinchi sinf yil va chorak mavzularini yoddan aytib bering.
- 8) Yuqoridagi sinflarga mo'ljallab, chorak mavzulardan kelab chiqqan holda dars ishlanmasini tayyorlang

1.2. Musiqiy tarbiyada kompyuter imkoniyatlari.

Odatda musiqa va musiqa ijodini muxokama qilinmaydi. Ular inson musiqasi o'rniga kompyuter musiqasi kelayotganligini gapirayotganlari yo'q. Lekin kompyuter ko'p narsani bajara oladi. U musiqiy ijodni taxlil qilishga yordam beruvchi o'ziga xos asboddur. U tabiatning turli tovushlarini taxlil qilib ma'lum bir guruxlarga bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari kompyuter bir oxangdan ikkinchi oxanga o'tuvchi nota matnini ko'chirishdek qiyin ishni xam bajar oladi. Musiqiy ijroni o'xshatib (kompyuter modeli bilan) ijro etish imkoniyati paydo bo'ldi. U musiqachilarni umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ajaratib olishga ularni ijro uslubini taxlil qilib aniqlashga yordam beradi. Yangi kompyuter dasturlarini amalga oshirilishi bastakorlarni kompyuter imkoniyatlarga boshqa nuqtaiy nazardan qarashga majbur etdi. Chunki kompyuter tovushlarni yangi usul bilan ishlab chiqaradi va tovushlar yig'indisini boshqaradi, akustik bo'shliqdan foydalanishga va uni nazorat qilishga imkon yaratadi.

- Bastakorlarni fikricha yangi dasturlar va tovushlarni sintezlovchi yangi texnika musiqani ilm bilan yaqinlashtiradi, shu bois ilgari ilmiy hisoblangan faoliyatni hozirgi kunda elektron musiqa doirasida o'z imkoniyatlarini sinayotgan bastakorlar amalga oshirayapdilar. Shu tariqa musiqiy ijoddagi muntazam- jarayonlar tabiatini aniqlashga imkon yaratildi, ya'ni analitik va sintetik boshlanishlarni taqqoslash, musiqadagi gipotetik alomatlarini ta'riflash: bastakorlarni qaysi biri akalitik yoki sintetik qutblarga tortilishini aniqlovchi tovsifnomalarni bo'lishi shular jumlasidandir.

- Zamonaviy kompyuterlar mavjud musiqiy asarlarni turlarga ajrata olsa ham, kompyuter yangi tovush tuzilmalarini yarata olsa ham, bastakor yoki ijrochi rolini bajarsa ham, unda bir xususiyat, eng asosiy hisoblangan xususiyat ya'ni ijodga ehtiyoj yo'qdir. Kompyuter yuzlab va minglab musiqalarni yaratish mumkin, lekin u bizga g'urur bilan "Bu men yozgan eng yaxshi asar!"- deb ayta olmaydi.

- Hozirgi zamon bastakorlarini aytib o'tilgan imkoniyatlarini inobatga olgan holda, bizbir nechta amaliy dasturlar majmuisini yaratik. Bu dasturlar, boshlang'ich sinflarda musiqa tinglashni o'ptimal imkoniyatlarini beradi. Bu haqda biz tadqiqotimizni keyingi bo'limlarida batafsil to'xtalib o'tamiz.

- Umumiy kompyuter savodxonligi – bu bizning siyosatimizni iqtisodimizni va xalq ta'limini eng murakkab va dolzarb muammosidir.

- Xozirgi kungacha zarur me'yoriy xujjatlar yo'q, yagona maqsadli rejalashtirish amalga oshirilmayapti. Amaliy informatika juda sung ishlab chiqilyapti Odatdagidek maktabda EHM ni qo'llanilishini pedagogik- psixologik muammosi kerakli darajada ko'rib chiqilmayapti.

- Kompyuter nafaqat texnik rivojlanishda, balki shaxsni rivojlantirish va tarbiyalashda katalizator bo'la oladi. Maktab partasida turgan, kompyuter- hayotni ijtimoiylashtirish, madaniyatimizni tez o'sishini asosiy shartidir. Biz faqat uning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam berishimiz kerak.

- Ta'limga g'ayrat bilan yondashish, psixologik-pedagogik tadqiqotlarni istiqbolli yo'nilishini aniqlab beradi, bu yo'nalishlar o'zlsiz ta'lim sistemasiga qaratilgan bo'lib, o'quv tarbiyaviy jarayonni yangi mazmun va informatsion texnologiyalarni yaratishga va psixologik ta'limlashga qaratilgan. Bu tadqiqotlarning dasturlari o'quv faoliyati qurilmasini nazorat-amaliy asosidagi ishlab chiqilmagan o'z ichiga olishi zarrur, bundan tashqari dasturlar kompyuterlarni qo'llash asosida yaratilgan o'quv fanlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarning yoshiga qarab kompyuterni qo'llanilish xususiyatlar maxsus tahlilini o'tkazish zarur.

- Xozirgi kunda bolalarni 2-3 yoshdan informatikaga o'rgatish mumkinligi isbotlab berildi. Ya'ni bu yoshda bolada turli operatsiyalar o'tkazish operatsiyasi shakillanadi. Shuningdek 6-12 yoshdagi bolalarga ta'lim berish jarayonida ham kompyuter bolani faolligi va ijodiy imkoniyatlarini chegaralanmagan taqdirda foydalanish tavsiya etiladi. Bu o'quv jarayonini uning o'yin faoliyatiga tayanib kattalarning va bolalarning gurux bo'lib ishlash jarayonini rivojlantiradi. Maktab o'quvchisini turli bosqichlarda kompyuterni qo'llash sharoitida o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim olish uslubi tadqiqotlari asosiy yo'nalishi bo'lib qoladi.

- Boshqa asosiy madaniy- texnik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bir qatorda oddiy kompyuter savodxonligini ya'ni kompyuter bilan ishlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish kiradi. Bu ko'nikmalar bolaga klaviatura belgilarini o'rganish, kompyuterda paydo bo'layotgan elementlarga aniq ta'sir etish imkonini beradi. O'z xarakterlarini dasturlashda nisbatan erkinlikka ega bo'lishi boladan murakkab rejalashtirishlarni va uzun ketma-ketliklarni eslab qolishni talab qilmasligi zarur.
- Shu bilan birga bola xarakati o'z ichiga konkret amaliy xarakterlarni xam olishi kerak. Bu yoshga tavsiya etilayotgan kompyuter dasturlarini mazmuni differentsiyalanagan maktab fanlariga bog'lash tavsiya etilmaydi. U entigiral xususiyatga ega bo'lib bolaga, vazifalarga echish jarayonini ta'minlab berish kerak. Bu yoshdagi bola uchun, o'quv faoliyatini o'yin shakilada tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bu faoliyat o'qituvchi va o'quvchini, o'quvchilarning o'zlarini xarakterlariga aniqlik kiritib kompyuter tarmoqlarini keng qo'llash asosida tuziladi.
- Bu yoshda kompyuter nafaqat maxsuslashtirilgan fan ("informatika va hisoblash texnikasi") sifatida, balkim matnlarni taxrirdan chiqaruvchi, laboratoriya tajribalarini o'tkazuvchi, amaliyot va loyiqalarni ishlab chiquvchi yarim funktsional asbob sifatida qo'llaniladi. Bu bosqichda o'quvchilar kompyuterni ma'lumot manbai, hisoblovchi, matn muxarriri, modellashtirish vositasi sifatida qabul qiladilar.
- Dasturlashga o'rgatish, professional ko'rikmalarni shakllanishi emas, balki ma'lum bir bilimlar doirasini mazmun- mantiq asosida tahlil qilish (algoritmash) asosida tashkil etiladi. O'z navbatida bu bolalarda tasavvur kilish rejalashtirish,taxlil kilish, refleksiya kabi mustakil ta'lim olish va mustakil faoliyat kursatishga erdam beradi.
- Yuqori maktab yoshi. Insonni professional faoliyati bilan keng-ko'lamda tanishish va kompyuter yordamida taqlidiy modellashtirishga ega bo'lgan o'quvchilar inson faoliyatini jamoa va ishlab chiqarishga oid muximroq, ya'ni ekologik va demografik modellashtirishni, kadrlarni eksplutatsiya qilishni ishlab chiqishni, konkret muammolarni matematik modellashtirishni o'tkazish va ularga echim topishni taklif etish, xokimiyat organlariga saylov xolatlarini modellashtirish, o'zining siyosiy va xuquqiy ongini singdirish kabi faoliyatlarini boshkarishni o'rganishlari zarur.
- "Bolalarni rivojlanishida va ta'lim" olishida yangi pedagogik texnologiyalari muammosi bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha qo'yidagilarni ishlab chiqish ko'zda tutilgan:
- bolalar rivojlanishida va ta'lim olishida kompyuter texnologiyalarini to'zilish printsiplari va ularni psixologik- pedagogik asoslari;
- Yangi, fanga oid rivojlantiruvchi o'quv shartlari va kompyuter vositalarni qullashga qaratilgan yangi o'quv fanlarini namunalari;
- Boshlang'ich o'rta va yuqori maktab o'quvchilarini birgalikda va individual faoliyatlarini kompyuter modellari;
- Turli yoshdagi bolalarni umumiy va maxsus qobiliyatlarini shakllanishi uchun ayniqsa kichik yoshdagi maktab bolalari (6-10 yosh) uchun rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlari.
- Maktab o'quvchilarini bilish jarayoniga va shaxsni rivojlanishiga ta'limni yangi texnologiyalarini ta'sir etishini va kompyuter diagnostikasi uslubiyotini nazorat etish;
- Pedagogik dastur vositalarini ishlab chiquvchilar uchun tavsiyalar;
- Yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha o'qituvchiga amaliy tavsiyanomalar;
- Bolalarni rivojlanishi, o'quv faoliyatlarini kompyuterda tuzatishni qo'llash va kompyuter diagnostikasi yuzasidan maktab psixologlari va psixologik xizmat xodimlariga tavsiyanomalar. Shu tarika, kursatilgan muammo yuzasidan utkazilgan tadqiqotlarni asosiy natijasi bulib, psixologik asoslangan ta'lim texnologiyasi buladi. Bu ta'lim texnologiyasi fanlarni ukitishda kompyuterlarni kullashni va kompyuter modellari misolida ukuvchilarni birgalikda va individual tashkillashtirilgan ukuv faoliyatini o'z ichiga oladi.

II - Bob Yuqori sinf o'quvchilarining musiqiy - nazariy bilimlarini kompyuter va zamonaviy pedagogik texnologiya usullari yordamida mustaxkamlash.

Musiqiy faoliyat barcha ta'lim-tarbiya ishlarimizning ajralmas qismi bo'lib, yoshlarni garmonik rivojlantirishda uning roli katta. SHuning uchun ham hozirgi vaqtda mamlakatimizda juda ko'plab musiqa maktablari, maktab va maktabdan tashqari bolalar, madaniy oqartuv muassasalarida, ishlab chiqarish tashkilotlari huzurida ko'plab ijodiy jamoalar tashkil etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi bolalarni ommaviy ravishda musiqa san'atiga jalb qilish, uni sevish, qadrlash va musiqaga bo'lgan qobiliyatlarini tarbiyalashdan iboratdir. Musiqiy-nazariy bilimlar to'laqonli tarzda faqatgina ixtisoslashgan musiqa maktablarida berilishini hisobga olib, bu o'quv muassasalarda musiqiy-nazariy bilimlar berishning shakl va usullari, metodlarini aniqlash ulardan istiqbolda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ham foydalanish imkoniyatini beradi. SHu maqsadda ixtisoslashgan musiqa maktablarining o'quv rejasi va dasturida musiqiy-nazariy bilimlar hajmini aniqlash, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni o'rganish, maxsus musiqiy bilim berish jarayonini umumiy o'rta ta'lim maktablariniki bilan taqqoslash bo'yicha maqsadli ishlar bajarildi hamda Glier nomidagi Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik letseyining boshlang'ich musiqiy maktabi «Musiqqa nazariyasi» bo'limining ish faoliyati bilan tanishdik va kuzatish ishlarini olib bordik. Ixtisoslashgan musiqa maktablarida «Musiqqa nazariyasi» va «Musiqqa tarixi» bo'limlari mavjud bo'lib, «Musiqqa nazariyasi» bo'limi – solfedjio, musiqa savodi, ritmika, musiqa nazariyasi, garmoniya, musiqiy asar tahlili, «Musiqqa tarixi» bo'limi – musiqa tinglash, musiqa adabiyoti, o'zbek musiqasi kabi fanlarni o'z ichiga qamrab olgan. Har bir fanni o'z mutaxassisi olib boradi. Sinf xonalari ixcham va shinam, har bir xonada stol va stullar, pianino, ko'rgazmali plakatlar, nota va matn yozuvi uchun doska mavjud. Sinf xonalari tashqaridagi shovqindan muhofaza qilingan. Maktabda musiqiy- nazariy bilimlarga oid gramplastinkalar zahirasi, o'quvchilar musiqiy- nazariy bilimlarni egallashlari uchun zarur bo'lgan maxsus adabiyotlar mavjud. O'quv rejasiga ko'ra musiqa nazariyasi bo'limi fanlarining sinflardagi o'quvchilar soni o'ntadan, musiqa tarixi bo'limi fanlari sinflardagi o'quvchilar soni o'n ikkitadan oshmasligi zarur. O'quv dasturiga ko'ra, boshlang'ich sinfda o'quvchilar haftasiga ikki soat solfedjio, ikki soat ritmika, bir soat musiqa tinglash darslariga kiradilar. Demak, boshlang'ich sinfda musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun o'quvchilarga hammasi bo'lib besh soat vaqt ajratiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning musiqiy- nazariy bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, ixtisoslashgan musiqa maktablari o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, maktab ta'limi jarayonida vujudga kelgan etishmovchiliklarni o'rnini to'ldiradi. SHu bilan birga maktab ta'limi jarayonida qo'llash imkoniyatlari birmuncha qiyin kechadigan yakka tartibda ishlash, tabaqalashtirib o'qitish «Musiqqa madaniyati» fani dasturlarida inobatga olinmagan nazariy va amaliy bilimlar berish imkonini beradi, ta'lim mexanizmini uzviylashtiradi, boyitadi. Ixtisoslashgan musiqa maktablari umumiy o'rta ta'lim maktablaridan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilimlar hajmi nisbatan ko'pligi bilan farqlanadi.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni quyidagi metod va shakllar yordamida amalga oshirildi:

- 1) O'quvchilar ongiga ta'sir etuvchi tarbiya metodlari – hikoya, tushuntirish, ta'kidlash, ma'ruza, amaliy misollar, ko'rgazmalilik, namuna ko'rsatish, bahs-munozaralar;
- 2) Ijodiy faoliyatni tashkil etish – mashqlar bajarish, takrorlash va mustahkamlash, pedagogik talab, topshiriqlar berish, tarbiyalovchi vaziyatlardan foydalanish va boshqalar;
- 3) Ta'lim-tarbiya jarayonida jazolash va rag'batlantirish metodlaridan foydalanish;
- 4) O'tilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- 5) Kichik musiqiy diktantlar yozish va nazorat darslarini tashkil etish. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirishning ixtisoslashgan musiqa maktablarida ta'limiy-tarbiyaviy ishlarini tashkil etish quyidagi vositalarga tayanib olib borildi:

o'qituvchi va o'quvchilarning shaxsiy yondashuvi va qobiliyati; axborot va texnik vositalar; namuna ko'rsatish; ko'rgazmali qurollar; yangi texnologiyalardan foydalanish.

Kuzatishlarimizga ko'ra ixtisoslashgan musiqa maktablaridagi musiqiy- nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining quyidagi printsiplarga muvofiq amalga oshirilishi ta'minlandi:

1. Musiqiy ta'lim-tarbiya birligi.
2. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish yagona maqsadga yo'naltirilganligi.
3. Musiqiy bilimlarning hayot bilan bog'liqligi.
4. O'quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlari hisobga olinganligi.
5. Musiqiy-nazariy mashg'ulotlarning muntazam va tizimli olib borilishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan qiyoslaganda, ixtisoslashgan musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining quyidagi jihatlarini farqlash mumkin:

- 1) Darslarga haftasiga ko'p vaqt ajratilganligini;
 - 2) O'quvchilarning darsga qiziqishlari yuqori darajadiligini;
 - 3) O'qituvchilarning bilim saviyasi va malakasi ancha yuqoriligini (maxsus oliy o'quv yurtlarini tamomlagan mutaxassislar);
 - 4) Har bir darsning aniq maqsadga yo'naltirilganligini;
 - 5) Sinf xonalarida ko'rgazmali qurollarning etariligi va darslarda ulardan unumli foydalanilishini;
 - 6) Darslarda yangi texnologiyalardan foydalanilishini;
 - 7) Sinflar guruhlariga bo'linganligi va har bir guruhda o'quvchilar soni o'ntadan oshmasligini.
- Aynan mana shu omillar maxsus musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini ta'minlaydi. Yana shuni ta'kidlash joizki, maxsus musiqa maktablarida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish boshqa maxsus fanlar bilan to'ldirilgan holda kechadi. Bu darslarda olingan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Musiqa nazariyasi kursi o'quvchilarga musiqa san'ati to'g'risida va musiqa «tili»ni birlashtiradigan musiqiy ifodalilikning asosiy vositasi – ohang haqida zarur ma'lumotlarni beradi.

Musiqa nazariyasi bo'limining maqsad va vazifalari:

1. O'quvchiga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushuntirish uchun zarur bilim va malaka tizimini berish.
2. Kursni o'zlashtirish jarayonida ham, keyinchalik ham o'quvchining musiqiy kamoloti uchun zarur musiqiy-nazariy malakalarni tarkib toptirish, uning musiqiy tafakkuri shakllanishi va takomillashishiga, musiqiy idroki shakllanishiga zamin yaratish.

Musiqa nazariyasi fanini o'qitish uslubiyatining asosiy qoidalari:

1. Butun kurs mobaynida musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish musiqani eshitish bilan uzviy bog'lanishi kerak. Bu tadbir musiqa nazariyasini o'zlashtirishga yuzaki yondashishni bartaraf etadi. Mavzular musiqiy asarni tinglashdan boshlanmog'i lozim. Binobarin, o'rganilayotgan musiqiy asarni ma'nosini anglamay, u haqidagi fikrni, ta'rifni, qoidani yodlash noo'rindir.
2. Nazariy qoidalarni izohlashda musiqiy misollarga, materiallarga, ya'ni o'quvchining didini tarbiyalaydigan musiqa madaniyatiga – milliy musiqaga tayanish kerak.
3. Musiqa nazariyasi solfedjio bilan metodologik aloqadorlikda amalga oshirilishi zarur. Boshlang'ich sinflarda boshlang'ich musiqa nazariyasi (musiqa savodi) solfedjio fani tarkibida o'tiladi. Lekin, shu bilan birga, musiqa nazariyasi ham – nazariy fan sifatida, solfedjio ham – amaliy fan sifatida o'z mustaqilligini yo'qotmasligi kerak.
4. Musiqiy-nazariy bilimlarni berish mantiqli, izchil bayon qilishning muayyan tizimi bo'yicha olib borilishi darkor.

Ixtisoslashgan musiqa maktablarining boshlang'ich sinflarida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan musiqiy-nazariy bilimlar modeli Solfedjio Ritmika Musiqa tinglash Nota savodi, musiqa savodi, notaga qarab kuylash asosida musiqiy eshitish Musiqiy tushunchalar, asosan ritm hissini shakllantiradi. Musiqa ostida Musiqa haqida boshlang'ich tushunchalar, musiqiy asar tahlili, musiqaning Musiqa nazariyasi bo'limi Boshlang'ich sinflar qobiliyatini, ovoznining intonatsion tozaligini, dirijyorlik qilish, ilk musiqiy tushunchalar, bilim va malakalarini shakllantiradi. ritmik

harakatlar bajarish, bolalar musiqa cholg'u asboblari jo'r bo'lish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Ifoda vositalari, musiqiy janrlar—opera, balet, raqs, qo'shiq, marsh, oratoriya, prelyudiya va boshqalar haqida tushunchalar beradi. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining yuksak mas'uliyatli, ilmiy-nazariy, uslubiy jihatdan pishiq, mukammal bo'lishi muhimdir. Uning samaradorligini, muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil bu puxta ishlab chiqilgan dars tizimidir. Ixtisoslashgan musiqa maktablarining musiqa nazariyasi bo'limi boshlang'ich sinflarda bir qancha fanlarni – solfedjio, musiqa tinglash va ritmika darslarini birlashtiradi. O'quvchilar ana shu fanlar orqali kerakli musiqiy-nazariy bilimlarni oladilar. Endi ana shu fanlarning har biriga alohida izoh beramiz.

Notaga qarab kuylash (solfedjio) Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida notaga qarab kuylash murakkab jarayon hisoblanadi. Solfedjio – italyancha solfeggio – notalar, musiqa belgilari, gammalarni kuylash – eshitish malakasini yuksaltirish va notaga qarab ularni tez o'qishni o'rganish uchun o'tkaziladigan vokal mashqlaridir. Solfedjio – musiqa asarlari va turli xil musiqiy mashqlarni notaga qarab, nota nomini aytib kuylash tariqasida olib borilishi mumkin. Solfedjio atamasi sol-fa notalari nomidan olingan. U o'qituvchidan darslarni tizimli va izchil ravishda olib borishni talab qiladi. Agar o'quvchilar sinfdan-sinfga o'tayotganlarida notaga qarab kuylash malakasini asta-sekin, oddiydan-murakkabga qarab olib borsalar, yuqori sinflarga o'tganda ular o'rganiladigan qo'shiqlarni bimalol notaga qarab kuylay oladilar. Notaga qarab kuylash – solfedjio musiqa savodi bilan uzviy ravishda olib boriladi. Musiqa savodi notalar joylashuvi, uzunligi, sanalishini o'rgatsa, solfedjio vositasida notalarni amalda kuylab ko'rish imkoniyati bo'ladi. SHuning uchun musiqa savodi va solfedjio muvoziy tarzda olib boriladi, ya'ni solfedjio va musiqa savodi yaxlit jarayonni tashkil etadi.

Birinchi sinfdanoq o'quvchilar notaga qarab kuylash malakasini egallashlari kerak. Buning uchun kuylanayotgan qo'shiqning harakatini notaga qarab kuzatib borish lozim. Avvalambor, oson bo'lgan kichik musiqiy lavhalar berib boriladi. Notaga qarab kuylash uchun o'quvchilar notalar tizimini yaxshi bilishlari va ularni nota chizig'idan bimalol topa olishlari muhim. Notaga qarab kuylash yaxshi samara berishi uchun o'quvchilarga tanish bo'lgan, avval kuylangan yoki tinglangan kuyni berish ularning kuy harakatini kuzatishlari uchun qulaylik tug'diradi. Kuylashdan oldin kuyning o'lchovi, qanday uzunlikdagi notalar (butun, yarim, chorak...) ishtirok etganligi, kuyning tempi, tonligi aniqlanadi. Keyin shu tonlikda ovoz sozlash mashqlarini bajarish tonlikka moslashish imkonini beradi. Mashqlarda tonlikdagi turg'un va noturg'un bosqichlar aniqlanadi va aytiladi. Ko'rgazmali qurol sifatida bunday mashg'ulotlarda darslikdan tashqari, musiqiy kuy yozilgan plakatlar yaxshi natija beradi. O'qituvchi boshchiligida o'quvchilar kuyning barcha notalarini baravariga aytadilar. Keyin o'qituvchi shu kuyni ohangi va o'lchovi bilan kuylab ko'rsatadi, o'quvchilar notaga qarab kuzatib turadilar. So'ngra hamma birgalikda notaga qarab kuyni kuylaydi va bir vaqtda dirijyorlik qiladi. Notaga qarab kuylashda dirijyorlik qilish, kuyning ritmidan chiqib ketmaslikka, metr hissini rivojlantirishga, notalar uzunligini to'g'ri sanashga yordam beradi. Asosiy maqsad – solfedjio malakasini egallash o'quvchilarning musiqiy uquvlarini, musiqa eshitish qobiliyatini, toza intonatsiyada kuylashni shakllantirishdir. Bu esa ularning amaliy faoliyatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Solfedjio asosan notanish kuylarni birinchi galdanoq notaga qarab kuylashni nazarda tutadi. Notanish kuyni notaga qarab kuylash uchun yozilgan kuyning ohangini fikran tasavvur qila olish lozim. SHuning uchun ham musiqiy uquvni o'stirish va musiqa tajribasiga etarli darajada ega bo'lish uzoq vaqtni talab etadi. Bunga musiqa savodini o'stirish, musiqa adabiyotlari bilan tanishish, vokal-xor malakalarini egallash jarayonlarida erishiladi. O'quvchilar asta-sekin musiqiy nutqning balandligi, ladi, metroritmik xususiyatlarini tushuna boshlaydilar, shuningdek ularda musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy xotira, musiqiy hissiyotlar paydo bo'la boshlaydi. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida notanish kuyni notaga qarab ijro etish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: O'qituvchi doskaga nota misollarini yozadi. Keyin o'qituvchining savollari va o'quvchilarning javoblari asosida kuy tahlil qilinadi. Tahlil qilish o'quvchilarning avval egallagan musiqiy-nazariy bilimlariga asoslanib, ularning yoshiga mos

ravishda o'tkaziladi. O'quvchilar tushunmagan elementlarni o'qituvchi tushuntirib beradi, o'quvchilar diqqatini asosiy mavzuga qaratadi.

Tahlil jarayonida quyidagilar aniqlanadi:

1. Asar tonligi, ladi.
2. Asarning o'lchovi.
3. Asarda uchraydigan dinamik belgilar.
6. Kuyning ritmik tuzilishi (notalar cho'zimi, pauzalar, asarning qaysi hissadan boshlanishi va hokazo).
7. Asardagi jumlar, nafas olish uchun qulay bo'lgan taktilar.

Ana shundan keyin solfedjioga, ya'ni nutqlashga o'tish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda solfedjio uchun mashqlar asosan do major gammasida beriladi. Chunki bu tonlik oson va kuylash diapazoni jihatidan qulay. Ixtisoslashgan musiqa maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqa savodiga alohida soat ajratilmagan bo'lib, ushbu bo'lim solfedjio darsi tarkibida o'tiladi, ya'ni avval musiqa savodi berilib, keyin u amalda qo'llaniladi.

2.1. O'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini komp'yuter yordamida rivojlantirish usullari.

Musiqiy qobiliyatlar bir butun jarayon ko'rinishida rivojlanayotgan bo'lsada, shunga qaramay har bir qismni ketma-ketlikda qanday shakllanishi yoki konkret musiqiy asar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

I. Kuyni xis qilish va tovush balandligini eshitishni rivojlanishini ketma-ketligi. Asarni eshitish jarayonida registrlar ifodaligini mohiyatini anglash (misol uchun "Bahor valsi" va "Andijon polkasi")

II. Ritm xissiyotini rivojlanish ketma-ketligi. Musiqada metr qismlarini bir meyorida tarqalishini qayta tiklash va tinglash (musiqa ostida xarakat qilish, oddiy musiqa asboblari chalish).

III. Musiqiy shakl xissiyotini (butunlik xissiyoti) rivojlantirish ketma-ketligi. SHakl xissiyoti bu erda elementar musiqiy tuzilishlar haqida musiqa eshitishni shakllanishini kompleks ko'rinishi nazarda tutiladi va ifodalilik vositalari, qismlarni kompazitsion bir butunlikda qabul qilinadi.

Bunda bolalar e'tiborini ashulalardagi musiqa tilini elementlarga (bo'laklarga) qaratish zarur; bu bilan birga nota yozuvlari bolalar musiqa asboblari yordamida sodda xarakatlarini qo'llash tavsiya etiladi.

Bolalarda musiqiy davrni bosqichlarga bo'lish hissini kuchaytirish, musiqa ostida harakat qilish, bolalar musiqa asboblari chalishni taklif etish, ashula va pesalarni musiqa bilan kuzatish (misol uchun ritmik to'xtash, yoki ularni boshlanishini aniq jumlar bilan belgilash) maqsadga muvofiqdir.

Tinglash uchun pesalarni o'quvchilarni o'qituvchi bilan birgalikda ijro etishda ifodalilik ustida ish olib borishda asosiy kulminatsiya, musiqa va kuyni his etishni kuchaytirish ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

Asarni ijro etganda va tinglaganda ularni mazmuniy ifodaliligi rivojlantirishda (qaytarish- takrorlash, variatsiyalash, keskin farq qiluvchanlik) his etishni kuchaytirish ishlarini olib borish va shakllantirish.

Intonatsiyani ifodali mazmunini, uni musiqiy "bayonida" tutgan asosiy o'rni haqidagi taassurotlarini shakllantirish.

Intonatsiya haqidagi taassurotlarni musiqiy fikrni bayon etish (tanish ashulaga bastalangan kuyni variatsiyalarni oddiy musiqiy asboblarda ijro etish misolida) haqidagi ong, tafakkurni shakllantirish.

Musiqiy obrazni, hayotiy ko'rinishlarni musiqa vositalari orqali aks ettirishni (misol uchun xalq kuylaridagi –hajviyalar) shakllantirish.

Musiqiy asarlarni mazmun yuklamasi va tuzilishi haqidagi tassurotlarni shakllantirish:

- bir obrazni ko'rsatuvchi (misol uchun "Paxtaoy" ashulasi), bir musiqiy fikrni bayon etuvchi bir qismli shakl;

- turli obrazlarni (to'ldiruvchi va qarama qarshi turuvchi) taqqoslash vositasi ko'rinishdagi oddiy ikki qismli shakl; ikkinchi qismni mazmun jihatidan "ish nima bilan tugadi" savoliga javob berib, ustun turishi (masalan, B. Umidjonovning "Oqshomda" asari);

- oddiy uch qismli shakl; oxirgi qismlarni mazmun jihatdan ustun turishi; birinchi qismdagi obrazni 3-qismda tasdiqlanishi (misol uchun L. Betxovenning "Quvnoq", "G'amgin" asarlari)

- band shakli bir qismli yoki ikki qismli musikiy tuzilishni ko'p marta takrorlanishi; ashula repertuarini ifodali ijro etishda yoki o'rganish jarayonida band shaklini o'rganish; xor jamoalarni chiqishlari yozilgan tasmalarni tinglash;

- rondo, referenni mazmunan yuklanishi, rondoda keskin qarama qarshilik printsiipi; "Dilorom", "Oshiq G'arib va SHoxsanam" operalari misolida rondo shakllarini ifodaliligini ochib berish;

- o'zgaruvchanlik shakli; o'zgaruvchanlik mavzuni o'zgartiruvchi usul sifatida; janr xususiyatlarini o'zgartirish (misol uchun "YAllama yorim" o'zbek xalq bolalar ashulasi, "Oq terakmi ko'k terak" uyin va boshqalar)

Bu usullar mavzularni yaxshiroq eshitishga yoki taqqoslashga asarni bosh g'oyasini tushunishga va his qilishga yordam beradi

Shu tariqa, yuqorida bayon etilgan musiqiy qobiliyatlarni shakllanish ketma ketligi quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'la oladi:

-yuqorida bayon etilgan ketma ketlik aniq bir mantiqiy aloqani shakllanishiga imkon yaratadi. Bu aloqa musiqa ijro etish majburiy bosqichlarini saqlab qolishga qaratilgan asosiy talablarni ta'minlab beradi.

-bo'lajak musiqa o'qituvchilarni ijodiy musiqiy qobiliyatlarini takomillashtiradi.

-musiqiy ijro paytida zamonaviy kompyuterlarni qo'llash imkoniyatini beradi

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni ijrochilik qobiliyatlarini maksimal darajada faollashtirish uchun, biz ko'rib chiqilayotgan muammoni umumta'lim maktabga yo'naltirilgan va u bilan aloqada bo'lgan holda ko'rib chiqishimiz lozim. Umumta'lim o'rta maktablardagi musiqa darslari musiqani sevuvchi, fikrlovchi g'oyalar chuqurligini his etuvchi, xalq, zamonaviy va klassik asarlarni eng yaxshi namunalardagi kechinmalar, his tuyg'ularni sezuvchi tinglovchini tayyorlashga qaratilgan. SHuning o'quvchilarni musiqiy tarbiyasining asosiy vazifasi ularda musiqiy anglashni rivojlantirish hisoblanadi.

Ba'zida, yuqori sinf o'quvchilari ijrosidagi qo'shiqni tinglashga tayyorgarlik ko'rgan payti, asar haqida berilgan bir yoki ikki jumlati ma'lumotlar bilan bir qatorda, o'quvchilarni e'tiborini musiqiy obrazni chuqur tushunishga yo'naltirilgan usullarni qo'llash mumkin. Misol uchun F. Nazarov musiqasiga bastalangan "Paxtaoy" qo'shig'i (V-sinf). Uni tinglashdan oldin o'quvchilarga savollar yoki topshiriq berish foydali. Bunday misollar asarni butunlay uning xususiyatlari bilan, diqqat bilan tinglashga yordam beradi, o'quvchilarda mustaqil faoliyat yuritishga qiziqish uyg'otadi, kuy bastalashga va uni o'rganib chiqishga undaydi.

Boshqa, yana bir bosqich- ashulani ko'rsatish. Uning vazifasi- tinglanayotgan asarga xos muxit yaratishdan iborat. Bolalarda musiqa tinglash jarayonida ularni tasavvurini, hissiy javob berish, obrazli fikrlash va aniq muloxaza yurita olishni tarbiyalash zarur. Ashula namoyishi-ma'suliyatli harakatdir. Bu erdagi asosiy talab- o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan asarni artistlarga xos, xis-to'yg'uga boy, ifodali ravishda namoyish etishdir. Ijro o'quvchilarda badiiy taassurot, asar variatlarini birini namoyish etish hohishi, ba'zi bir ijrolarga taqlid etish hoxishini paydo bo'lishiga yordam berishi zarur.

Ashula namoyish etishning turli yo'llari bor. Birinchisi- bu o'qituvchining o'zi ashulani ijro etib berishidir. Bu bolalarni musiqaga qiziqtirishning eng samarali usulidir.

O'qituvchi ashula namoyishiga diqqat bilan tayyorgarlik ko'radi: ashulani yod oladi, birinchi ijro uchun bandlarni tanlaydi, ashulaning musiqiy mazmunini tushuntirish yo'llarini aniqlaydi. Bundan tashqari o'qituvchi o'z ovozi jaranglashiga ham e'tibor berishi zarur.

Yangi asar bilan tanishishning boshqa bir turi – bu yaxshi kuylay oladigan o'quvchilarni shu ashulani ijro etishidir. Bunday sharoitda o'qituvchi ularning chiqishini oldindan tayyorlaydi.

Ko'pgina o'qituvchilar grammyozuvdan (solist yoki bolalar xori) foydalanadilar. Bunday uslubni qo'llash mumkin, lekin grammyozuv o'qituvchi ijrosida tinglansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. SHunda bolalar mustaqil ravishda u yoki bu ijroning xususiyatlarini taqqoslash, ularga yoqqan ijroni tanlashga, bir so'z bilan aytganda eshitgan narsani chuqur tahlil qilishga imkoniyat yaratiladi (misol uchun ijrolarda o'xshash va qarshilik tomonlarni aniqlash).

O'quvchilarni yangi ashula bilan tanishtirishni yana bir uslubi bor, ya'ni asar ijrosi paytida uni notalar asosida kuyini va so'zlarni kuzatish. Bunday uslub ikki va uch ovoqli kuylarni namoyish etishda yaxshi natija beradi. Ba'zida aytilgan uslub kichik yoshdagi (sinflardagi) bilan ish jarayonida ham qo'llaniladi. Bunda ko'rgazmali qurollar sifatida kuyni grafik yozuvi qo'llaniladi.

Umumiy qilib aytganda tahlilni turli xil ko'rinishi ashula o'rganishga qaratilgan bo'lib, shu bilan birga o'quvchilarni qanchalik diqqat e'tibor bilan musiqani tinglaganliklari uni tushunganlik darajasini, javoblarida ularni qanday qo'llay olganliklarini ko'rsatadi. Maktabga o'quvchilar turli tayyorgarliklar bilan kelishadi, shu bois ularni musiqiy ta'ssurotlari ham rang-barangdir. Ular bolalar bog'chasida ko'rgan kino, radiodan, kattalardan eshitgan- ashulalarni xirgoyi qilishadi.

Ko'p hollarda bu asarlar quvnoq, hayotbaxsh, musiqa va she'rlari bilan diqqat e'tiborni jalb etishadi. Bolalarni musiqiy qiziqishlari turg'un emas. Bunga tez o'zgaruvchan kattalarga taqlid sababdir. SHuning uchun o'qituvchi oldida katta ma'sul vazifa-o'z tarbiyalanuvchilariga mustaqil ravishda ega bo'lgan ta'ssurotlarida chama (orientr) olishni o'rgatish turadi.

Lekin, turli-tuman musiqani tushinish bolaga qiyinchiliklar tug'diradi. Musiqani yaxshi tushinish uchun tovush va tovush birliklarini xususiyatlarini, ularni o'zgarishini, musiqadagi fikr va xissiyotlarni tushina bilish zarur. Musiqani tushinish qiyinchiliklari shundan iboratki turli bastakorlarni musiqa tili o'z xususiyatlariga (individuallik, milliy, tarixiylik) ega. Ana shu xususiyalarni bolalar ajrata bilishlari kerak.

Musiqaga bo'lgan qiziqishni shakillantirishni birinchi darslardan oq boshlash zarur. Kech boshlangan jarayonda jiddiy musiqaga nisbatan salbiy munosabatlar paydo bo'lishi va bu munosabatlarni engish, o'qituvchiga qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bolalar turli bastakorlarni turli asarlarini qanchalikga tez-tez tinglab tursalar, shunchalik ularni ijodiga qiziqish uyg'onib, ularni asarlarini boshqalar ichidan ajratib oladigan bo'lalilar.

Zamonaviy o'qituvchi badiiy kuylanuvchi musiqani o'rganishda turli eshitishni shakillantiruvchi vositalarni qo'llaydi.

Musiqani tushunish uchun zarur bo'lgan musiqiy - eshitish tasavvurlarni rivojlantirish nafaqat uni tinglaganda, balki o'quvchilarni vokal-instrumental ijrosida ham amalga oshiriladi. Ya'ni bolalar o'z xissiyotlarini o'tkazishga xarakat qilgan paytlar, intonatsiyani ko'proq ifodali bo'lishini, ritmik mos kelish, tembr va dinamik birligi yuzaga keladi.

Yuqori tovushli eshitish qobiliyatini maqsadli rivojlantirish, musiqani tushunishni ta'minlab bermaydi. Tovushlar mosligini balandlik, davomiylik, tembr, dinamika, qog'ozdan o'qish bilan farqlash mumkin, lekin bu bilan hech narsani xis etish bo'lmaydi.

Eng yaxshi pedagoglar, bolalarda musiqiy ko'nikmalarni rivojlantirib, nafaqat musiqa tinglashni, balki xissiyot bilan uni qabul etishni, mazmuniga oid kechinmalarni paydo bo'lishini va ularni ifodali ijro etishni tarbiyalaydilar.

2.2 Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uning bugungi kundagi zarurati.

Jamiyat rivojidadagi ilmiy - texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishni texnologiyalashirishga olib keladi. Hozirgi davrda texnologiyalashirish jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Texnologiyalashirish ob'ektiv jarayon bo'lib, ishlab chiqarishning barcha sohalariga kirib boradi, ular evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal etilishiga asos soladi.

Texnologiyalashirish tushunchasini bevosita pedagogik jarayonlar bilan bog'lasak, u holda ta'lim- tarbiya qonuniyatlarini amalga oshirish, ularning yangi qonuniyatlarining o'ziga xos qirralarini kashf etish asosida umumiy maqsadga erishish - ijobiy sifat o'zgarishlariga ega bo'lgan barkamol avlod shaxsini shakllantirish tushuniladi. Yoki pedagogik texnologizatsiyani shaxsda yangi sifat o'zgarishlarini loyihalovchi, kutilajak natijani kafolatlovchi, ta'lim- tarbiyani tashkil etish, boshqarish va amalga oshirishning tizimli jarayoni, deb tushunish mumkin.

Texnologiya tushunchasi "Texnologiya"- grekcha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o'zgarishga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.

Pedagogik texnologiya ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashtirishning tizimli usulidir. (YUNESKO)

"Pedagogik texnologiya - ta'lim maqsadlariga va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni mutassil ravishda rivojlantirish tizimini loyihalashtirish" (N.Azizxo'jaeva).

Pedagogik texnologiyalar ta'lim- tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy- muhandislik tafakkurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standart holatga solib, uning optimal loyahasini tuzish bilan bog'liq tushunchadir. Jumladan, o'qitishning vazxonlik usulilaridan voz kechib, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchining bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga erishishga yo'lovchi- o'qituvchi, ustoz rahbarligida o'quvchilarning ko'proq mustaqil faoliyatini tashkil etish va eng muhimi o'qituvchining deyarli bir xil natijaga erishish imkoniyatining mavjudligidir. Ayniqsa, o'qitishga yagona davlat ta'lim standartlari joriy etilgan, jahonning barcha davlatlari andozalari talabiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashning hozirgi davrida keyingi holat alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilganda ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyihalalanadi, kutilayotgan yakuniy natija- ijobiy sifat o'zgarishi kafolatlanadi, o'quv jarayonining takrorlanuvchi tsikli yaratiladi, tezkor qaytuvchi aloqa vujudga keladi, o'quv maqsadlari, o'quv jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi.

Pedagogik jarayonni tafakkur asosida standartlash loyihasi g'oyasi XVI asrda yashagan slavyan pedagogi Ya.O. Komenskiy tomonidan ilgari surilgan edi. U o'zining "Buyuk didaktika" deb nomlangan mashhur asarida ta'lim- tarbiya jarayonini bir qolipga solmoqchi bo'lganki, unda "har bir usul va narsalar vaqt jihatidan" shunday joylashtirilishi kerak ediki, "butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak" edi. Buyuk pedagog Ya.O.Komenskiy etmagan orzuga XX asr pedagoglari etib, pedagogik texnologiyalar yaratishdi. XXI asrda bu ijtimoiy voqelik innovatsion pedagogik texnologiyalar nomini olib, butun dunyo pedagoglariga dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Amaliyotda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni umumlashtirib, quyidagicha turkumlash mumkin.

- insonparvarlik va demokratik pedagogik munosabatga asoslangan pedagogik texnologiyalar (shaxsiy munosabatni shakllantirish, yakka holdagi yondoshuv, demokratik boshqaruv, insonparvarlikka yo'naltirilgan texnologiyalar)

- ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (o'yinli texnologiyalar, muammoli o'qitish, kommunikativ o'qitish texnologiyalari kabi)

- o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (dasturli o'qitish, differentsiyali o'qitish texnologiyasi, yakka holda o'qitish, istiqbolli o'qitish, guruhli va jamoali o'qitish texnologiyasi, axborotli texnologiya kabi)
- o'quv materialini metodik taqqoslashtirish va didaktik rekonstruktsiya qilishda pedagogik texnologiyalar. (aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar).
- xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiyalar.

«Galeriyani aylanish» metodi

Kichik guruhlarining barcha a'zolariga bita muammo taklif etiladi. Har bir guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlar fikrlari umulashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

«Qor bo'ron» metodi

Ikki ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko'p to'g'ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to'g'ri javob yumaloqlangan qor ko'rinishida o'sha guruh hisobiga yozib qo'yiladi; to'plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

«Asalari galasi» metodi

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo'lishi mumkin. Guruhlar qo'yilgan muammoni ma'lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma'lum qilishadi. Muammo echimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

«Dumalovchi qor uyumi» metodi

Dumalovchi qor uyumi metodi o'quv mashg'uloti o'tkazish metodining ramziy nomisi bo'lib, ish qo'yilgan muammo ustida mulohaza yuritib ko'rish uchun talabalarga vaqt, tegishli manbaalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning xar bir a'zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o'zining keng qamrovli nuqtai nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlariga ajratiladi. Muhokama kilib chiqish uchun barcha guruhlariga bitta topshiriq beriladi. Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So'ngra birinchi bilan ikkinchi va uchunchi bilan to'rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama yuritishadi. Oxir oqibatda bircha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo'lib qo'yilgan muammo echimini hal etishning turli yo'llarini, variantlarini muhokama qilishadi. Bunday muhokama jarayonida talabalarining qo'yilgan muammo yuzasidan bilimlari chuqurlashib, boyib, kengqamrovli bo'lib boradi.

«Sindikat» metodi

Guruh uchta kichik guruhlariga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur. Masalan, uch noma'lumki, uchta tenglamalar sistemasini echish topshirig'i berilgan bo'lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchunchi guruh Matritsa usulidan foydalanib echadi. So'ngra echimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

«Akvarium» metodi

Guruhdan uch talaba ajratib olinib ularga xona o'rtasidagi stol atrofida o'tirishlari va qo'yilgan muammoni o'n minut atrofida birgalikda muhokama qilishib, fikr bildirishlari so'raladi. Bu uch talaba akvariumdagi baliqlarga qiyos. Atrofdagi o'tirgan kuzatuvchilar o'rtasidagi talabalarining fikrlarini diqqat bilan tinglab, javoblarni to'g'ri va noto'g'riga ajratib yozib borishadi hamda muhokama paytida o'zlarining qarashlarini bayon etishadi. Etarli darajada fikr bildira olmagan o'rtadagi talabalar o'z o'rinlarini kuchli fikr bildirgan kuzatuvchi talabalarga bo'shatib berishadi. Har bir muammo yuzasidan bildirilgan fikrlar talabalar ishtirokida o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

«Raqamli» metodlar

Guruhlardagi talabalarning umumiy sonidan kelib chiqqan holda 4x4x4, 5x5x5, 6x6x6 metodlarining biridan foydalaniladi. Masalan, 5x5x5 metodida har biri 5 ta talabadan iborat 5 ta kichik guruhchalar tashkil etilib, ularning 5 nafar sardorlari to'plashib ko'yilgan muammoni hamkorlikda muhokama etishadi, so'ngra o'zlarining guruhlariga qaytishib sheriklariga masalaning echimini o'rgatishadi.

«Ajurli arra» metodi

Ajur frantsuzcha "ajour" so'zidan olingan, "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq" degan ma'noni anglatadi.

Bu metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- talaba-o'quvchilardan 4-5 kishilik kichik guruhlar tashkil etiladi;
- talaba-o'quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir necha asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar) ga qir qiladi;
- mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar paketi kichik guruhlarining har bir a'zosiga tarqatiladi;
- kichik guruh a'zolari matnli materiallardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishadilar;
- kichik guruhlarining yaxshi o'zlashtiruvchi a'zolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi;
- ekspert guruhi a'zolari qo'llaridagi topshiriqlarni xamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga o'rgatish rejasini egallashadilar;
- ekspertlar o'zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytishib o'rganganlarini boshqa sheriklariga o'rgatishadi.

O'qitishga bunday yondashilganda talaba-o'quvchilarning xamkorlikda ishlariga va katta hajmdagi o'quv materiallarining o'zlashtirilishiga erishiladi.

Bu metoddan foydalanuvchi pedagog talaba-o'quvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni kunt bilan o'rganishni, birgalikda muhokama etishni, savol-javob qilishni, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishlari zarurligini oldindan aytadi.

«Sinektika» metodi

Bu metod amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun qulay bo'lib, "aqliy hujum" metodiga yaqin. Bunda talaba darsda qo'yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo'lishi mumkin.

«Dumaloq stol» metodi

Bu metod amaliy mashg'ulot uchun qulay. Bunda o'qituvchi tomonidan bitta savol yozilgan varaq kichik guruhga taqdim etiladi.

Talabalar o'zlarining ismi-shariflari va savolga javoblarini yozib, varaqni yonidagi talabaga uzatadi. Shu tarika yozilgan javoblar yig'ishtirib olinib, talabalar ishtirokida noto'g'rilari o'chirib chiqiladi va natijalar baholanadi.

«Ruchka stol ustida» metodi

Bu metod amaliy mashg'ulot uchun ko'lay. Savolga o'zining javob variantini yozgan kichik guruhdagi talaba ruchkasini stol ustiga ko'yib varaqani yonidagi sherigiga uzatadi. Savolga javob yoza olmagan talaba ruchkasini stolga qo'ymaydi. Bir nechta kichik guruhlardagi talabalarning qo'yilgan bir xil savolga javoblari yig'ishtirib olinib birgalikda muhokama qilinadi. Bu metod afzalliklari: o'qituvchi mashg'ulotga kim tayyor emasligini ko'rib turadi; mashg'ulotga tayyorlanmagan talaba og'zaki muhokama paytida ko'rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar oladi; bu metod kichik guruhda olib boriladigan ish bo'lib, talaba intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o'zining javob varianti ustida uzoq o'ylab o'tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflab yuboradi. SHuningdek talaba mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham guruhga pand beradi; talabalar o'z javoblarini ikki marta, ya'ni yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

«Rotatsiya» metodi

Bu metod mashg'ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi;

-dars mavzusi bo'yicha topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzular) plakatlariga yozilib doskaga osib qo'yiladi;

-topshiriqlar soni uchta bo'lsa, talaba-o'quvchilar ham shuncha kichik guruhlariga ajratiladi va guruhchalar nomerlanadi;

-kichik guruhlar o'zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqni va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

-kichik guruhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganishib topshiriqqa javoblarini yozishadi;

-javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli bir talaba-o'quvchi tomonidan yoziladi;

-topshiriqlarga yozilgan javoblar varag'i, ma'lumotlar paketi kichik guruhlararo almashtiriladi va qo'shimcha qilinadi, biroq javoblarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaygan;

-javoblar qaysi kichik guruhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangdagi flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

«Davra suhbat» metodi

Davra suhbat- talabalar o'rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish usulidir.

Davra suhbat usuli qo'llanganda stol- stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabaning bir- biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu mavzu bo'yicha o'z fikr- mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir talaba o'z fikr- mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama kilish lozim bulsa, barcha fikr — muloxazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol—stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir talabaga konvert qog'ozi beriladi. Har bir talaba konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va yonidagi talabaga uzatadi. Konvertni olgan - talaba o'z javobini qog'ozga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi talabaga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha kotsvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

Davra suhbat usulining afzalliklari:

- o'tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha talabalar o'zaro muloqotda bo'ladilar;
- har bir talaba o'zining ishtirok etish mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

«Ishbop o'yin» metodi

Ishbop o'yin — berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) usuli hisoblanadi.

O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq— atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat kilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'gartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. SHuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual - guruhli xarakterga ega. Xar bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy vazifa bo'yicha maqsadga erishish butun guruh a'zolari erishgan natijalarga bog'likdir. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

«Ishbop o'yin» usulining afzalliklari:

1. talabalarning bilimlarini va tajribalarini o'z qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;

2. talabaning boshlang'ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
3. talabalar o'z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

«Yo'naltiruvchi matn» metodi

Yo'naltiruvchi matn — talabalar mustaqil ravishda yo'naltiruvchi savollar yordamida ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarini bajaradigan usuldir.

«Yo'naltiruvchi matn» usuli loyixalash bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ikki usulni bir-biridan quyidagi nuqtai nazar bo'yicha farqlash mumkin:

- 1 «yo'naltiruvchi matn» usuli talabalarning mustaqil o'rganishiga qaratilgan;
- 2 «loyixalash» usuli esa, talabalarning mustaqil o'rganishidan tashqari, e'tiborni kasb o'rganishda kerak bo'ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

«Yo'naltiruvchi matn» usulidan o'quv amaliyot darslarida foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu usulni o'tkazish bosqichlari loyihalash usulining bosqichlari bilan bir—xildir. Ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida talaba va o'qituvchi orasida «qaytuvchi aloqa» o'rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. Talabalarga boshlang'ich bosqichlarda o'qituvchi tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlarga texnik chizmalar, jadvallar, yo'naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshkalar kiradi.

«Yunaltiruvchi matn» usulining afzalliklari:

- talabalarning kunikma va malakalarining shakllanishiga olib
- keladi;
- talabalarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- talabalarda muloqot qilish, o'z natijalarini o'zi tekshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- talabalarda ish - harakatlarni rejalashtirish, mustakil karor qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Muammoli vaziyat» metodi

Muammoli vaziyat — talabalarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning echimini topishga asoslangan usuldir. «Muammoli vaziyat» usuli uchun tanlagan topshiriqning murakkabligi talabalarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, talabalarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

«Muammoli vaziyat» usulining afzalliklari:

1. talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
2. talabalar sabab, farq va ta'sirlarni topishni o'rganadilar;
3. talabalarning bilim va tajribalarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
4. talabalar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

«Aqliy hujum» metodi

Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish usulidir. «Aqliy hujum» usuli biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan eng samarali usuldir. Aqliy hujum usulining yozma va og'zaki usullari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda

bayon etadilar. YOzma shaklida esa, berilgan savolga talabalar o'z javoblarini qogoz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» usulining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to'g'ri va ijobiy ko'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy hujum usulidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar tanqidiy baholanmasligi talabalarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu usul talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” usuli o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Talabalarning boshlang'ich bilimlarini aniklash maqsad qilib qo'yilganda, bu usul darsning mavzuga kirish qismida amalga oshirish o'rindir.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda — yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda- mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshirish samara beradi.

“Aqliy hujum” usulining afzallik tomonlari:

- 1.natijalar baholanmasligi talabalarni turli fikr- g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- 2.talabalarning barchasi ishtirok etadi;
- 3.fikr- g'oyalar rag'batlantirib boriladi;
- 4.talabalarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- 5.talabalarda mavzuga qiziqish uyg'otish mumkin.

“Rolli o'yin” metodi

Rolli o'yin - talabalar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart- sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi usuldir. Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni yakuniy baholashning olib borilmasligidir. Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni echish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

O'yin yakunida talabalardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan talabalar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

«Rolli uyin» usulida o'qituvchi talabalar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir talabaning individual xarakteri, xulq- atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular talabalarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak.

“Rolli o'yin” usulining afzallik tomonlari:

- 1.o'quv jarayonida talabalarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- 2.talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- 3.nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- 4.talabalarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Zig—zag” metodi

«Zig—zag» usuli tahsil oluvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha ishtirokchilarni baholay olishga

qaratilgan. Ushbu texnologiyada tarqatma materiallar ishtirokchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtiriladi hamda o'zaro suhbat, bahs- munozara, turli savollar orqali ularning matnini qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi va kichik guruhlarning faolliklari va o'zlashtirish darajalari tezkor baholanadi.

“Zig—zag” usuli bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich. 4—5 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etish va o'rganiladigan mavzu matnini guruhlar soniga mos holda alohida bo'laklarga ajratgan holda guruhlariga tarqatish. (Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi, tarqatma matnlar ham har bir ishtirokchiga berilishi lozim)

2-bosqich. Guruh a'zolariga berilgan matnlar ishtirokchilar tomonidan yakka tartibda, so'ng guruh bilan mustaqil o'rganiladi

3-bosqich. Raqamlar yozilgan qog'ozchalar (raqamlar kichik guruh ishtirokchilarining soniga mos bo'lishi kerak) kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tortiladi.

4-bosqich. Har bir kichik guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadilar. Bu bosqichda har bir ishtirokchi ham o'qituvchi, ham talaba roliga ishtirok etadilar.

O'qituvchi sifatida o'rganib kelgan materialini sheriklariga tushuntiradi. Talaba sifatida sheriklari tushuntirgan matnlarni o'rganadi. Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir – birlarini tekshirib ko'radilar. Baholash esa, guruhlarning bir- birlariga savol berishi yoki test, savollari yoki shu ishlarning taqdimoti ko'rinishida olib borilishi mumkin.

Bu usulning afzalligi:

- 1.Hajm jihatidan katta materialni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi.
- 2.Kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjihatligining mustahkamlanishi.

«Bahs-munozara» metodi

Bahs — munozara talabalarni ikki guruhga bo'lgan holda biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish usuli. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qo'llaniladi. Bahs- munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarining biriga topshirish mumkin. Bahs- munozarani talabalar erkin holda olib borish va har bir talabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu usul olib borilayotganda talabalar orasida paydo bo'ladigan “nizo”larni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

Bahs- munozara usulining afzalliklari:

- 1.Talabani mustaqil fikrlashga undaydi;
- 2.Talabalar o'z fikrini to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar;
- 3.Talabalarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi;

Insert texnologiyasi


Insert texnologiyasi — o'quv materiallarini o'zlashtirish va mustahkamlash, tahsil oluvchilarning kitob bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda uy vazifalarini mustaqil bajarishda qo'llaniladigan texnologiyadir. Ushbu texnologiyada ishtirokchilar matnlardan mustaqil foydalanishni, olingan axborotlarni taxlil qilish, tizimlashtirish, belgilar qo'yib o'qishni, ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar

Usulning afzalligi:

- 1.tahsil oluvchi matnlardan mustaqil foydalana oladi.
- 2.olingan axborotlarni mustaqil tahlil qila oladi
- 3.axborotlarni tizimlashtirib, shartli belgilar yordamida ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
- 3.kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjihatligi mustahkamlanadi.

**Ta'lim jarayonida interfaol usulli texnologiyalarni
qo'llash bo'yicha ilovalar**

**I. Interfaol usulli texnologiyalar asosiga qurilgan o'quv mashg'ulotini quyidagi ketma-ketlikda rejalashtirish mumkin:
O'quv dasturi asosida mashg'ulot mavzusini aniqlash.**



O'quv maqsadlari tasnifi




1.Yo'naltiruvchi o'quv maqsadlar;

2.Umumiy o'quv maqsadlar;








3.Aniq o'quv maqsadlar.

Aniq o'quv maqsadlar kichik ko'lamdagi ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lib, ko'zlangan natija (bilim, ko'nikma, malaka)ni aniq belgilaydi.




II. Rolli o'yin texnologiyasi



Ishbop o'yinlar texnologiyasi



IV. Muammoni hal etish texnologiyasi.



Kichik guruhlarga muammoli topshiriqlar taqsimlab beriladi.

Kichik guruh ishtirokchilari muammoli vaziyatlarni tahlil qiladilar va ularning echimlarini topadilar

Kichik guruh ishtirokchilari berilgan topshiriqlar bo'yicha taqdimot qiladilar

Har bir kichik guruh taqdimoti qolagan guruhlar va o'qituvchi tomonidan baholanadi

O'qituvchi xulosa qiladi.

V. Yo'naltirilgan matnlar bilan ishlash texnologiyasi

Kichik guruhlar shakllantiriladi

1 guruh

2 guruh

3 guruh

4 guruh

Guruhlarga vazifalar taqsimlab beriladi.

Yo'naltiruvchi matn va savollar asosida kichik guruh mustaqil ravishda ma'lumot yig'adi, rejalashtiradi va amalga oshiradi

Berilgan vazifalar bo'yicha taqdimot qilinadi

O'qituvchi yakuniy xulosa qiladi.

Xulosa

Musiqiy faoliyat barcha ta'lim-tarbiya ishlarimizning ajralmas qismi bo'lib, yoshlarni garmonik rivojlantirishda uning roli katta. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda mamlakatimizda juda ko'plab musiqa maktablari, maktab va maktabdan tashqari bolalar, madaniy oqartuv muassasalarida, ishlab chiqarish tashkilotlari huzurida ko'plab ijodiy jamoalar tashkil etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi bolalarni ommaviy ravishda musiqa san'atiga jalb qilish, uni sevish, qadrlash va musiqaga bo'lgan qobiliyatlarini tarbiyalashdan iboratdir. Musiqiy-nazariy bilimlar to'laqonli tarzda faqatgina ixtisoslashgan musiqa maktablarida berilishini hisobga olib, bu o'quv muassasalarda musiqiy-nazariy bilimlar berishning shakl va usullari, metodlarini aniqlash ulardan istiqbolda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ham foydalanish imkoniyatini beradi. Shu maqsadda ixtisoslashgan musiqa maktablarining o'quv rejasi va dasturida musiqiy-nazariy bilimlar hajmini aniqlash, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni o'rganish, maxsus musiqiy bilim berish jarayonini umumiy o'rta ta'lim maktablariniki bilan taqqoslash bo'yicha maqsadli ishlar bajarildi. Ixtisoslashgan musiqa maktablarida «Musiqqa nazariyasi» va «Musiqqa tarixi» bo'limlari mavjud bo'lib, «Musiqqa nazariyasi» bo'limi – solfedjio, musiqa savodi, ritmika, musiqa nazariyasi, garmoniya, musiqiy asar tahlili, «Musiqqa tarixi» bo'limi – musiqa tinglash, musiqa adabiyoti, o'zbek musiqasi kabi fanlarni o'z ichiga qamrab olgan. Har bir fanni o'z mutaxassisi olib boradi. Sinf xonalari ixcham va shinam, har bir xonada stol va stullar, piano, ko'rgazmali plakatlari, nota va matn yozuvi uchun doska mavjud. Sinf xonalari tashqaridagi shovqindan muhofaza qilingan. Maktabda musiqiy- nazariy bilimlarga oid gramplastinkalar zahirasi, o'quvchilar musiqiy- nazariy bilimlarni egallashlari uchun zarur bo'lgan maxsus adabiyotlar mavjud. O'quv rejasiga ko'ra musiqa nazariyasi bo'limi fanlarining sinflardagi o'quvchilar soni o'ntadan, musiqa tarixi bo'limi fanlari sinflardagi o'quvchilar soni o'n ikkita dan oshmasligi zarur. O'quv dasturiga ko'ra, boshlang'ich sinfda o'quvchilar haftasiga ikki soat solfedjio, ikki soat ritmika, bir soat musiqa tinglash darslariga kiradilar. Demak, boshlang'ich sinfda musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun o'quvchilarga hammasi bo'lib besh soat vaqt ajratiladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning musiqiy- nazariy bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ixtisoslashgan musiqa maktablari o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, maktab ta'limi jarayonida vujudga kelgan etishmovchiliklarni o'rnini to'ldiradi. Shu bilan birga maktab ta'limi jarayonida qo'llash imkoniyatlari birmuncha qiyin kechadigan yakka tartibda ishlash, tabaqalashtirib o'qitish «Musiqqa madaniyati» fani dasturlarida inobatga olinmagan nazariy va amaliy bilimlar berish imkonini beradi, ta'lim mexanizmini uzviylashtiradi, boyitadi. Yuqorida men umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarining musiqiy - nazariy bilimlarini kompyuter texnologiyasi orqali o'rgatish masalalarini taxlil etib berishga harakat qildim. Jumladan, umumta'lim maktablari yuqori sinflarda musiqa madaniyati mashg'ulotlarining mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlari hamda o'quvchilarning bu boradagi bilimlarini oshirishda kompyuter imkoniyatlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida mustaxkamlash xususida atroflicha fikrlashga harakat qildim. O'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini komp'yuter yordamida rivojlantirish va uning bugungi kundagi zarurati borasida bilim va xulosalarimni yuqorida keltirib o'tdim . Uni baholash siz aziz ustozlar xukmiga havoladir.

ILOVALAR
Beethoven, Sonata Op.81a Adagio 1st mvmt

♩ = 60

Musical score for measures 1-4 of the first movement of Beethoven's Sonata Op. 81a, Adagio. The score is in B-flat major and 4/4 time. The tempo is marked as ♩ = 60. The instruments are Piano (BB), Drums (BB), Melody (BB), Bass (BB), and Strings (BB). The Piano part has a whole rest in measures 1-3 and a whole note chord in measure 4. The Drums part has a quarter rest in measure 1, quarter notes in measure 2, quarter notes with asterisks in measure 3, and a quarter note with a slash in measure 4. The Melody part has a whole rest in measure 1, a whole note chord in measure 2, a half note in measure 3, and a quarter note in measure 4. The Bass part has a whole rest in measure 1, a whole note chord in measure 2, a half note in measure 3, and a quarter note in measure 4. The Strings part has a whole rest in measure 1, a whole note chord in measure 2, a half note in measure 3, and a quarter note in measure 4.

Musical score for measures 5-8 of the first movement of Beethoven's Sonata Op. 81a, Adagio. The score is in B-flat major and 4/4 time. The tempo is marked as ♩ = 60. The instruments are Piano (BB), Drums (BB), Melody (BB), Bass (BB), and Strings (BB). The Piano part has a half note chord in measure 5, a half note chord in measure 6, a half note chord in measure 7, and a half note chord in measure 8. The Drums part has a quarter note with a slash in measure 5, a quarter note with a slash in measure 6, a quarter note with a slash in measure 7, and a quarter note with a slash in measure 8. The Melody part has a half note in measure 5, a half note in measure 6, a half note in measure 7, and a half note in measure 8. The Bass part has a half note in measure 5, a half note in measure 6, a half note in measure 7, and a half note in measure 8. The Strings part has a half note chord in measure 5, a half note chord in measure 6, a half note chord in measure 7, and a half note chord in measure 8.

8

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Bass (BB)

Strings (BB)

11

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Bass (BB)

Strings (BB)

43

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Bass (BB)

Strings (BB)

45

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Bass (BB)

Strings (BB)

48

Piano (BB)

Drums (BB)

Melody (BB)

Bass (BB)

Strings (BB)

50

Piano (BB)

Melody (BB)

Bass (BB)

Strings (BB)

Mozart-Bagatelle in F

$\text{♩} = 146$

Guitar (BB)

Drums (BB)

Bass (BB)

Piano (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

5

Guitar (BB)

Drums (BB)

Bass (BB)

Piano (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

73

This musical system covers measures 73 to 76. It features six staves: Guitar (BB), Drums (BB), Bass (BB), Piano (BB), Melody (BB), and Strings (BB). The key signature has one flat (B-flat). The guitar part consists of chords in the treble clef. The drums play a consistent pattern of eighth notes. The bass line is in the bass clef, moving in a steady eighth-note pattern. The piano part is split into two staves, with the right hand playing chords and the left hand playing a bass line. The melody is in the treble clef, featuring a series of eighth notes. The strings are in the bass clef, playing block chords.

77

This musical system covers measures 77 to 80. It features six staves: Guitar (BB), Drums (BB), Bass (BB), Piano (BB), Melody (BB), and Strings (BB). The key signature has one flat (B-flat). The guitar part continues with chords in the treble clef. The drums maintain the eighth-note pattern. The bass line continues in the bass clef. The piano part continues with chords in the right hand and a bass line in the left hand. The melody continues in the treble clef. The strings continue with block chords in the bass clef.

81

Guitar (BB)

Drums (BB)

Bass (BB)

Piano (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

85

Guitar (BB)

Drums (BB)

Bass (BB)

Piano (BB)

Melody (BB)

Strings (BB)

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992. -46 b.
2. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori.–T. Sharq, 1997. -64 b.
3. Karimov I.A.O'zbekiston buyuk kelajak sari.–T.O'zbekiston,1998 -686 b.
4. Karimov I.A.Yuksak ma'naviya – engilmas kuch –T.O'zbekiston,2008.-686 b.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000. -112 b.
6. Abdullin E. O nachalnom etape muzikalnogo obucheniya v obheobrazovatelnix shkolax Yaponii G`G` Muzikalnoe vospitanie v shkole, vip.9. M., 1984.
7. Abdullin E., So`pin G. Programma, ustremlyennaya v buduhee G`G` «Sovetskaya muzika», 1988, №10.
8. Avratiner V. Obucheniya i vospitanie muzikanta-pedagoga. M., 1981.
9. Akbarov I., Xusainov T. III sinf musiqa darsligi uchun metodik qo'llanma. T., 1974.
10. Alaev Yu. Puti formirovaniya navikov mnogogolosnogo peniya v detskom xore G`G`Muzikalnoe vospitanie v shkole, vo`p. 10, M., 1985.
11. Anisimov A. Dirijyor-xormeyster. L., 1976. G` 7. Apraksina O. Metodika muzo`kalgogo vospitaniya v shkole. M., 1983.
12. Apraksina.O.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spets. 2119 «Muzika i penie») –M.: Prosvehenie, 1983.
13. Arismendi A. Doshkolnoe muzikalnoe vospitanie. M., 1989.
14. Archajnikova L.G. Professiya-uchitel muzo`ki. –M.: Prosvehenie, 1984
15. Asafev B. O xorovom iskusstve. L., 1980. -214
16. Bandina A., Popov V., Tixeeva L. Shkola xorovogo peniya. Vo`i.1. Dlya shkolnikov mladshogo vozrasta. M., 1981.
- 17.Baxritdinova N.A. O'zbekiston bolalar xor madaniyati. T., 2002, -110 b.
18. Vasileva A. Organizatsionno`e printsipo` raboto` detskogo xoraG`G`Voproso` metodiki prepodavaniya muzo`kalno`x distsiplin. T., 1991
19. Vengrus L. Vokalno-xorovaya rabota s detmi doshkolnogo vozrasta. Avtoref. diss. na soiskanie uch. st. k. isk. L., 1988.
20. Vetlugina N.A., Keneman A.V. Teoriya i metodika muzo`kalgogo vospitaniya v detskom sadu. –M.: Prosveshenie, 1983. -255 s.
21. Vetlugina N.A. razvitie muzikalnix sposobnostey doshkolnikov v protsesse muzikalnix igr. M.: APN, 1988g., -247str.
22. Voproso` metodiki muzo`kalgogo vospitaniya detey. M.: «Muzika», 1985
23. Vospitanie muzo`koy. M.: «Prosvehenie», 1991 g., -204 str.
24. Kabalevskiy D.B. Kak rasskazo`vat detyam o muzike? M.:Prosvehenie,1984.
25. Mamirov K. Vospitanie nraivstvennix chustv mladshix shkolnikov v protsesse obucheniya muzike. Dis. na sois. kand. ped. nauk. (13.00.01.) -T.,1986. - 186 b.
26. Matonis V. Muzikalno-esteticheskoe vospitanie lichnosti. –L.: Muzo`ka, 1988
27. Metodika prepodavaniya muzikalnix distsiplin: Sb.statey. –T.: O`qituvchi. 1989.
28. Muzikalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. G` avtor sost. Kadirov R.G., –T.: Muzika, 2005. -80 c.
29. Muzikalnoe vospitanie v shkole. Vo`p.19.: Sb. statey. G` Sostav. O.Apraksina. M.: Muzo`ka, 1987. -110 s.
30. Oripova R. O'smirlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish (maktabdan tashqari muassasalardagi musiqiy to'garaklar misolida). T., 2007,